

MUNDARIJA		
	Kirish.....	3
I Bob.	SUG‘URTA BOZORIDA MOL-MULKINI SUG‘URTA-LASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA GAROV MUNOSABATLARINI YUZAGA KELISHINING HUQUQIY ASOSLARI	
1.1	Sug‘urta bozorida mol - mulkini sug‘urtalashning nazariy-uslubiy asoslari.....	9
1.2	Garovga qo‘yilayotgan mol-mulkni sug‘urtalash jarayonida huquqiy asoslarning yuzaga kelishi.....	17
II Bob.	O‘ZBEKISTONDA GAROVGA QO‘YILGAN MOL-MULKNI SUG‘URTALASHNING AMALGA OSHIRISH TARTIBI VA TAHLILI	
2.1	Garovga qo‘yilayotgan mol-mulk sug‘urtasidagi sug‘urta ob’ekti va sub’ektlari.....	25
2.2	O‘zbekistonda garovga qo‘yilgan mol-mulkni sug‘urtalashni amalga oshirish tartibi va tahlili	35
III Bob.	IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA GAROVGA QO‘YILAYOTGAN MOL-MULKNI SUG‘URTALASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	
3.1	Sug‘urta tashkilotlari tomonidan garov sug‘urtasida yuzaga kelgan da’volarni ko‘rib chiqilishi.....	45
3.2	Garovga qo‘yilgan mol-mulkni sug‘urtalash mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari.....	56
	Xulosa.....	60
	Adabiyotlar ro‘yxati.....	65

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Davlat moliyaviy siyosatining maqsadi iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini muayyan chora-tadbirlar yordamida oshirish asosida jamiyat a'zolarining turmush farovonligi darajasini ta'minlashdan iborat. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlarini samarali moliyaviy siyosat natijasi ekanligini qayd etish zarur. Respublika iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sug'urta sohasining o'rni va ahamiyati beqiyos. Shu bois, respublika hukumati tomonidan sug'urta munosabatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "2014 yilda bozor xizmatlari ko'rsatish hajmi 15,7 foizga o'sdi, ularning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 53 foizdan 54 foizga oshdi. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo'lgan aholining 50 foizdan ortig'i ushbu tarmoqda mehnat qilmoqda"¹.

Bugungi kunda milliy bozorining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishiga qaramay, mulkiy sug'urtaning muhim segmentlaridan biri – garovga qo'yilgan mulkini sug'urtalashning bugungi holatini qoniqarli deb bo'lmaydi. Ayniqsa, sug'urtaning aholi keng qatlamlari orasiga kirib bormaganligi, sug'urta savodxonligining hali-hanuz past darajada saqlanib qolayotganligi, aksariyat sug'urta tashkilotlarining sug'urta mukofotlari tushumini "tez va oson, ko'p mehnat talab etmaydigan yo'llar" orqali ko'paytirishga qaratilgan harakatlari tufayli, ko'plab savdo shaxobchalari yoxud ma'lum miqdorda agentlar sonini oshirishni taqozo etadigan jismoniy va yuridik shaxslar bilan ishlash tizimiga qiziqishining kamligi mulkini sug'urtalash sohasini keng miqyosda va ko'lamda taraqqiy etishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

¹ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. Xalq so'zi, 2015 yil 16 yanvar.

Bunday muammoli holatlarning mavjudligi va ularni hal etish yo'llarini izlashning zarurligi, ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarb ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lib, sug'urta tashkilotlari tomonidan garovga qo'yilgan mol-mulk sug'urtasi bo'yicha olib borayotgan faoliyati hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib, garovga qo'yilayotgan mol-mulkini sug'urtalashda sug'urtalovchi va mijoz o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar, sug'urtalash qoidalari va tartiblari tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Garovga qo'yilgan mol-mulkini sug'urtalashning nazariy va uslubiy asoslari hamda amaliy jihatlarini o'rganish natijasida ushbu sug'urta turini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish tadqiqot ishining maqsadini belgilaydi.

Tadqiqot ishi oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni hal etish zarur deb hisoblandi:

- sug'urta bozorida mol - mulkini sug'urtalashning nazariy-uslubiy asoslarini ochib berish;
- garovga qo'yilayotgan mol-mulkni sug'urtalash jarayonida huquqiy asoslarning yuzaga kelishini yoritib berish;
- garovga qo'yilayotgan mol-mulk sug'urtasidagi sug'urta ob'ekti va sub'ektlari faoliyatini o'rganish;
- O'zbekistonda garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urtalashni amalga oshirish tartibi va tahlili etish;
- sug'urta tashkilotlari tomonidan garov sug'urtasida yuzaga kelgan da'volarni ko'rib chiqish;
- O'zbekistonda jismoniy shaxslar mulkini sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llarini aniqlash.

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida garovga qo'yilgan mol-mulk sug'urtasini amalga oshirish tartibi, shartlari nazariy jihatdan yoritilgan. Bu holat sug'urtaning nazariy-ilmiy asoslarini

boyitish imkoniyatini beradi. Shuningdek, mamlakatimizda garovga qo'yilgan mol-mulk sug'urtasini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi o'z samarasini beradi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Tadqiqot ishining birinchi bobida Sug'urta bozorida mol- mulkini sug'urtalashning nazariy-uslubiy asoslari va garov munosabatlarini yuzaga kelishining huquqiy asoslari atroflicha yoritilgan va ilmiy jihatdan asoslangan. O'zbekistonda garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urtalashning amalga oshirish tartibi va tahlili bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida ko'rib chiqilgan. Ishning uchinchi bobida Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida garovga qo'yilayotgan mol-mulkni sug'urtalash mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari xususida to'xtalib o'tilgan. Xulosa qismida tadqiqot natijasida olingan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar o'z aksini topgan.

I BOB. SUG'URTA BOZORIDA MOL-MULKINI SUG'URTA-LASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA GAROV MUNOSABATLARINI YUZAGA KELISHINING HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Sug'urta bozorida mol - mulkini sug'urtalashning nazariy-uslubiy asoslari

Bozor iqtisodiyoti tizimi rivojlanib borar ekan jamiyat faoliyatining barcha sohalari ko'rsatkichlariga, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiyotning muhim elementlardan biri sug'urtaga ehtiyoj oshib boradi. Sug'urta fuqarolar, tashkilotlar va davlatning mulkiy manfaatlarini har xil tabiiy, texnik hamda turli xildagi tavakkalchiliklardan himoya qilishini byudjetdan mablag' talab qilmay ta'minlaydigan mexanizmdir.

Tabiiy ofatlar, avariylar va boshqa favqulotda ro'y beradigan hodisalar inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda yuz beradi. Ilmiy nuqtai-nazardan qaraganda, har bir mulk egasi o'z mol-mulkini qisman zararlanishi yoki butunlay yo'qotilishi oqibatida ko'riladigan zararlarni qoplanishidan manfaatdor ekanligini ko'rish mumkin.

Qadim zamonlardan fuqarolar o'rtasida ko'rilgan zararni qoplash maqsadida mulk egalariga tegishli mol-mulklarni birlashtirish va zararni birlashma a'zolari o'rtasida bo'lish fikri tug'ilgan. Ushbu birlashma qatnashchilari qanchalik ko'p bo'lsa, zarar ko'rgan tomonga to'lanishi kerak bo'lgan qoplama uchun ajratiladigan mablag' ulushi shuncha kam bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, agarda har bir mulk egasi ehtimoli mavjud bo'lgan zararni qoplash maqsadida zahirada uning aylanma mablag'lariga teng miqdorda moddiy boyliklarni ushlab turishga majbur bo'lganlar. SHu sababli xayrihoh shaxslarni zararni birgalikda qoplash maqsadida birlashmaga birlashtirish g'oyasi yuzaga kelgan.

Sug'urta uzoq tarixga borib taqaladi. Miloddan ancha oldin hukmronlik qilgan Bobil podshosi Hammurappi joriy qilgan qoidada yirik savdo

koloniyalari jamoasi uzoq safarga chiqqanda talofat ko'rsa, qaroqchilarga talansa, ko'rilgan zararni jamoa a'zolari o'rtasida barobar taqsimlash yo'li bilan qoplash ko'zda tutilgan, shu orqali hamkorlikda yordam uyushtirilgan.

Ko'zda tutilgan bu qoida sug'urta fondi tashkil qilinganiga qadar kelib chiqqan. To'satdan yuz bergan hodisalar qaroqchilar hujumi, betob bo'lib qolish va hokazolar natijasida paydo bo'lgan zararlarni qoplash usuli bir mamlakatda o'rganilib, ikkinchi mamlakat savdogarlari jamoalarida ham qo'llanilgan. U Markaziy Osiyo shaharlari bo'ylab keng tarqab savdo aloqalarini amalga oshiruvchilarga ham qulaylik tug'dirgan. Keyinchalik bu qoida rivojlanib karvonlar safarga otlana boshlaganlarida sug'urta fondini shakllantirish rusum bo'la boshlagan. Aholini muhtoj tabaqalariga yordam berish shariat qonunlarida ham ko'zda tutilgan. Keyinchalik uning o'rniga sadaqa hisobidan fond tashkil qilinib, yordam uyushtirilgan. Demak, dastlab sug'urta fondi zakot va sadaqa sifatida shakllangan, mahalla va qishloqlarda tabiiy ofat, baxtsiz hodisa, talofat yuz berganda jamoatchilik yo'li bilan moddiy yordam uyushtirilgan, hashar tashkil qilingan, jabrlanganlarga pul yig'ib berilgan¹.

Sug'urta tushunchasi yuzaga kelishi bilan insoniyat jamiyatlarining barcha tizimlarida mavjud bo'lgan tabiiy ofatlar, yong'inlar, yer qimirlashlari, qoramollar o'lishi, avariylar va boshqa hodisalardan mulk egasining ko'rgan zararlarini qoplab berishning eng samarali usuli bo'lib hisoblangan.

«Sug'urta deganda yuridik yoki fuqarolar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi»².

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini, sog'ligi va daromadlarini yo'qotish, sug'urta risklari va ularni oldini olish chora-tadbirlari, barcha fuqarolarning mol-mulki va daromadlarini sug'urta himoyasiga olish – sug'urtaning iqtisodiy

¹ “Суғурта: 100 савол ва жавоб” Ҳ.Собиров. Тошкент – “Меҳнат” -1998, 20-21 бетлар.

² Ўзбекистон Республикасининг “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги қонуни 3 - моддаси

mohiyatini belgilab beradi. Ko‘p asrlik sug‘urta tarixi shuni isbotlab berdiki, sug‘urta faoliyati iqtisodiyotga ijobiy ta‘sir etuvchi eng muhim omillardan biridir. Bundan tashqari sug‘urta tashkilotlari tomonidan shunday faoliyat amalga oshiriladiki, bu sug‘urta hodisasini oldini olish ishlaridir. Oldini olish ishlari o‘z ichiga, sug‘urta hodisalari soni va undan keladigan zararlarni kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan ishlar, ya‘ni doimiy sug‘urta ob‘ektining tekshirish va o‘quv dasturlari kiradi. SHu sababli, sug‘urta nafaqat sug‘urtalangan mulkni xavfsizligini ta‘minlashini, balki sug‘urta hodisalarini ro‘y berishini kamayishiga va fuqarolar xavfsizligini yaxshilashga yordam berishini isbotlab berdi.

Shunday qilib, sug‘urta bozor iqtisodiyoti sharoitida rejali iqtisodiyot davridan farqli o‘laroq, yangi shakl va vazifalarni yaratdi. Ayniqsa bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan davrda tadbirkor o‘zining jami fikrlarini bozor muammolariga, raqobatga qaratishi, barcha ishlab chiqarish va mehnat vositalari turli xildagi baxtsiz hodisalardan moddiy himoyalanganligiga ishonchi komil bo‘lishi zarur.

Sug‘urta munosabatlariga sug‘urta shartnomasi orqali kirishiladi, ya‘ni sug‘urta shartnomasi bu yozma ravishdagi bitim bo‘lib, bunga ko‘ra oldindan ko‘zda tutilgan sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda sug‘urta tashkiloti sug‘urtalanuvchiga yoki uning uchun olish huquqiga ega bo‘lgan boshqa shaxsga ushbu hodisa tufayli ko‘rilgan zararni to‘laydi. Sug‘urta shartnomasining amal qilishi odatda yagona sug‘urta badali bo‘lgan chog‘da sug‘urta badalining barcha miqdori to‘lab bo‘lingandan keyin yoki badalning birinchi qismi to‘langandan keyin boshlanadi. Sug‘urta shartnomasi amal qilishi sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan muddat tugagandan keyin to‘xtaydi. Shuningdek sug‘urta hodisasi yuz bergan holda va unga sug‘urta to‘voni to‘liq to‘langanda sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati belgilangan muddatdan oldin to‘xtatiladi.

Sug‘urta shartnomasini tuzish va uning amal qilish davrida mijoz doimo sug‘urtalovchining e‘tiborida ekanligini, sug‘urta mukofotlari hisobiga o‘zi

uchun ishonchli himoyani sotib olganligini, tanlagan sug'urta tashkiloti samarali boshqarilayotganligini hamda uning manfaatlari birinchi o'ringa quyilayotganligini his etishi muhimdir. Sug'urta riski yuzasidan ehtimollikka, sug'urta ta'minotiga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiruvchi qator omillar sub'ektlar tomonidan talab sifatida qo'yilishi mumkin. Ular jumlasiga:

- Iqtisodiyotda nodavlat sektorning kengayishi;
- uy-joy fondlarining kengayishi;
- aholi turmush darajasining oshib borishi kabi qator omillar kiradi.

Faqat sug'urtagina investitsiya imkoniyatlarini ko'paytirishga va millatning moddiy boyliklarini o'stirishga imkoniyat yarata oladi. Bu ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi.

Sug'urtada insonlar o'rtasida ishlab chiqarish, muomala qilish, moddiy boyliklar olish, almashish jarayonlaridagi iqtisodiy aloqalardan foydalaniladi. U barcha jamiyat a'zolari va xo'jalik yurituvchi su'bektlarga zararni qoplab berish kafolatini beradi.

Tabiat va jamiyatning moddiy zarar keltiruvchi ziddiyatli harakatlari insonlar tomonidan birinchi navbatda tasodifan ro'y berdi deb qabul qilinadi, lekin ularning doimiy takrorlanib turishi oqibatida iqtisodiy aloqalar holati va texnogen muammolar bo'lishidan qat'iy nazar ro'y berishini isbotlab beradi. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi qarama – qarshiliklar natijasida yuzaga kelgan zararni qoplash, insonlar o'rtasida tabiiy ofatlardan ko'riladigan zararlar oqibatlarini qisqartirish, barataraf etish va oldini olish zarurligini taqozo etadi.

Ishlab chiqarish jarayonini to'xtovsiz bo'lishini ta'minlash va hayotda erishilgan mavqeini mustahkamlash maqsadida insonlar o'rtasidagi bu ob'ektiv aloqalar barchasi sug'urta himoyasining iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi.

Sug'urtaning iqtisodiy kategoriya sifatida o'ziga xos belgilari mavjud. Mijozda o'z mol-mulkларini sug'urtalashga bo'lgan ehtiyoj asosan sodir bo'lishi ehtimoli kuchli bo'lgan tasodifiy voqeaning, ya'ni sug'urta hodisasining mavjudligi bilan bog'laydigan favquloddalikdir. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda mulkning nobud bo'lishi yoki unga zarar etishiga, daromadni boy

berishga va uchinchi shaxs oldidagi javobgarlikka olib kelishi mumkin. Sug'urta har doim sug'urta voqeasiga, ya'ni yuz berishi sug'urtaning asosiy ishtirokchilari sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi ixtiyoriga bog'liq bo'lmaydigan kutilmagan hodisaga aloqador bo'ladi.

Sug'urtaning yana bir xususiyatlaridan biri bu ta'min etilganlikdir. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga sug'urta mukofotlarini to'lash uchun barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi lozimligi ko'zda tutiladi. Ushbu holat avvalo shu bilan izohlanadiki, sug'urta biznesi birinchi navbatda kim sug'urta himoyasiga muhtoj va sug'urta mukofotini to'lash imkoniyatiga ega bo'lsa, o'shalarga yo'naltirilgan bo'lish kerak. Aks holda ularning mukofotlari hisobiga, ehtimolda tutilgan favqulotda va boshqa zararlarni to'lash uchun mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondini shakllantirishning imkoni bo'lmaydi.

Chegaralanganlik, ya'ni sug'urtalanganlar o'rtasida zararni taqsimlash nisbatini ta'minlash. Bunda zarar ko'rganlar soni har doim sug'urtalanganlarning umumiy sonidan kam bo'lishi lozim bo'ladi. SHuning hisobidan sug'urtalanganlar o'rtasida zararni taqsimlash nisbati ta'minlanadi. Sug'urta zararni birgalikda taqsimlash tamoyili asosida sug'urtalanuvchilar tomonidan ularning sug'urta mukofotlari hisobiga shakllantirilgan sug'urta fondi vositasida sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi yopiq qayta taqsimlash pul munosabatidan iborat. Sug'urta faoliyatining o'ziga xosligi shundan iboratki, sug'urtalovchi sug'urta fondini sug'urta turlaridan shakllantiradi, shu bilan birga sug'urtalanuvchilardan tushgan sug'urta mukofotlari sug'urtalovchining foydasi sifatida qaralmaydi, chunki ulardan bo'lg'usi mukofotlar uchun foydalanish lozim bo'ladi. Ushbu fond mablag'laridan faqat uni tashkil etuvchilargina foydalanishlari mumkin va buning natijasida sug'urta mukofoti miqdori ularning har birini zararni taqsimlash nisbatida ifoda etadi. Zararni bunday taqsimlay olish sug'urtalanuvchilar soni ancha ko'p bo'lgandagina samarali bo'ladi va sug'urtalanuvchilar sonining o'sish sur'ati sug'urta hodisalari o'sishi sur'atidan yuqori bo'ladi.

Sug'urta hodisasi yuz berganda zararni qoplash o'z navbatida, uning vaqtinchalik va hududiy taqsim qilinishiga bog'liq bo'ladi. Sug'urtalanuvchilarning turgan o'zni ma'lum bir joyga aloqadorligi sababli ancha katta hudud sug'urtaga tortilgan va mijozlar soni ancha ko'p bo'lgan chog'da zarar summasini muvaffaqiyatli qayta taqsimlash imkoni bo'ladi. Bundan tashqari tadbirkor daromadiga, oila daromadiga og'irlik qilmaydigan kam miqdordagi sug'urta mukofotlari hisobiga eng katta zararlarni qoplash imkoniyati tug'iladi. Zararni vaqtinchalik taqsimlash sug'urta hodisasi yuz berishining tasodifiy va ehtimol tutilgan xarakteri bilan bog'liq. Sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan sug'urta hodisasining yuz berishi ehtimolligi, odatda bir yil doirasidan chiqadi. Uzoq muddatli qayta taqsimlash munosabatlari davriga zararni taqsim qilishni tartibga soluvchi sifatida zaxira fondlarini tashkil etish zaruriyatini shart qilib qo'yadi. Sug'urta kompaniyasi bo'lg'usi zararlarni to'lash imkoniga ega bo'lishi uchun tushgan sug'urta mukofotlarining bir qismini zaxira fond uchun ajratishi zarur.

Sug'urta fondi mablag'larining qaytishi, sug'urtalovchilar o'rtasida zararni chegaralangan taqsimlash tamoyilidan kelib chiqadi. Agar sug'urta fondini tashkil etadigan sug'urta mukofotlari ma'lum (tuman, viloyat, respublika) miqyosida bir sug'urtalanuvchiga to'g'ri keladigan yuz berish ehtimoli bo'lgan zararni to'g'ri ifoda etsa, sug'urta mukofotlarini hisob-kitob qilish uchun qabul qilingan butun sug'urta fondi ishini olib borishda sarf harajatlarini hisobga olmaganda, xuddi shu miqyosida o'sha vaqt mobaynida sug'urta tovonlarini to'lash uchun ishlatilishi lozim. Bu davr tarif davri deb yuritiladi. Sug'urtaning xavf-xatar turi uchun tarif davri odatda besh yilga, sug'urtaning jamg'arma turi uchun o'n yilga teng muddatga qabul qilinadi. Ushbu belgi ba'zi sug'urtalanuvchilar tomonidan sug'urta shartnomasining amal qilish davrida o'zlarining sug'urta tovonini olishlaridagi tegishli huquqi sifatida noto'g'ri talqin etiladi. Bu ko'rinib turgan xatodir, chunki sug'urta summasi doirasidagi sug'urta tovonini sug'urtalanuvchiga sug'urta hodisasi sodir bo'lgandagina zararni qoplash uchun to'lanadi.

Inson va jamiyat tomonidan sug'urta himoyasi zaruriyatini anglab etishi, sug'urta ehtiyojlarini shakllantirdi, ular orqali iqtisodiy munosabatlar yuzaga kela boshladi. Sug'urta deganda jismoniy yoki yuridik shaxs ko'rgan zararni ko'pchilik o'rtasida taqsimlash orqali qoplash usuliga aytiladi. Ko'rilgan zarar sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) ixtiyoridagi sug'urta fondlari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Sug'urta fondi – sug'urta mukofotlari va sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatidan ajratilgan mablag'lardan shakllantirilgan, hamda faqat sug'urta tovonini to'lash uchun foydalaniladigan pul jamg'armasi hisoblanadi. U sug'urtalovchining moliyaviy majburiyatini bajarish uchun zarur bo'lgan zaxira fondlarini o'z ichiga oladi.

Sug'urtaga bo'lgan ehtiyoj shu bilan belgilanadiki, zararlar insoniyatga bog'liq bo'lmagan hodisalar oqibatida yuzaga keladi. Bunday holatda zararni qoplashni biror kimsadan talab etib bo'lmaydi va ushbu zarar ko'rgan kishining o'zi tomonidan qoplanadi. Oldindan tashkil etilgan sug'urta fondi ko'rilgan zararni qoplash manbai bo'lishi mumkin.

Sug'urta qachonki sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi munosabatlar sug'urta hodisalari yuz berishi pulga bo'lgan talabni keltirib chiqarganda maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sug'urta ta'minoti – sug'urta uchun qabul qilingan sug'urta ob'ektining haqiqiy qiymatiga sug'urtaviy bahoning nisbatidir. Ko'rsatilgan narxdan foiz hisobida ifoda etiladi yoki bir sug'urta ob'ektiga pul ko'rinishida me'yorlashtiriladi. Sug'urta ta'minoti quyidagicha farq qilinadi:

Sug'urta ta'minotining nisbiy tizimi. Nisbiy tizimi sug'urtalanuvchiga ko'rilgan zararining hammasi emas, balki bir qismi, ya'ni sug'urta qilingan qismi to'lanadi. Bu badal sug'urtaviy baholashga muvofiq bo'ladi.

Sug'urtaviy baholash – sug'urta qilish maqsadida sug'urta ob'ektlari narxini belgilash jarayoni. Sug'urta shartlarida kelishilgan sug'urtaviy baho sug'urta ob'ektining haqiqiy narxidan past bo'lishi mumkin, lekin bu uning haqiqiy qiymatidan yuqori bo'lmasligi kerak.

Ko‘rilgan zararni boshqalar zimmasiga yuklatish zaruriyati orqali yuzaga kelgan sug‘urtalash, o‘zining ko‘p yillik rivojlanish davrida ko‘p o‘zgarishlarga duch keldi va hozirda fuqarolar huquqiy javobgarligi munosabati bilan ko‘rilgan zarar keltirgan shaxsdan undiriladi. Bunday holatlarda zarar ko‘rgan shaxsga sug‘urtalash mulkiy manfaatdorligini himoyalashda qo‘shimcha kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

1.2. Garovga qo‘yilayotgan mol-mulkni sug‘urtalash jarayonida huquqiy asoslarning yuzaga kelishi

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 264 moddasida garov tushunchasiga quyidagi ta’rif berilgan: Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatlarni ta’minlash uchun berishi garov hisoblanadi². Garovlar majburiyatlar bilan bog‘liq ekan, majburiyat tushunchasini bilish garovning mohiyatini yanada ochadi.

Majburiyat — fuqarolik huquqiy munosabati hisoblanadi. Qarzdor bo‘lgan bir shaxs kreditor bo‘lgan boshqa shaxs foydasiga mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, pul to‘lash, muayyan harakatdan o‘zini saqlashga, muayyan harakatni amalga oshirishga majbur bo‘ladi. Kreditor shaxslar qarzdor shaxslardan o‘zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Majburiyat munosabatlarida kreditor yoki qarzdor sifatida bir yoki bir necha shaxs ishtirok etishi mumkin.

Majburiyat kelishilgan va taraflar uchun maqbul usulda bajarilishi shart.

Majburiyatni bajarish usuli shartnomada ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Shartnomadan kelib chiqqan majburiyatni to‘la hajmda yoki uning bir qismini bajarish agar uchinchi shaxs taraflardan biri bilan tegishli shartnoma orqali bog‘liq bo‘lsa, uchinchi shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin.

² Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодекси. “Адолат”, 1997 йил 1 март.

Majburiyat bajarilmaganligi uchun shartnomadagi taraf javobgar bo‘ladi. Majburiyatni bajarish muddati ko‘rsatilmagan bo‘lsa, kreditor har qachon ijroni talab qilishi mumkin. Qarzdor esa majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab etti kunlik muddat ichida bajaradi.

Qarzdor garov bilan ta‘minlangan majburiyatni bajarmagan taqdirda garovga qo‘yilgan mulkni majburiyat hisobiga olishi mumkin. Garovga oluvchining majburiyat bo‘yicha talabi garovga qo‘yilgan mol-mulkning qiymatidan garovga qo‘yuvchining boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantiriladi.

Zayom, bank krediti, ijara, oldi-sotdi, yuklarni tashish va huquqning har qanday sub‘ektlari bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar, davlat o‘rtasidagi boshqa majburiyatlarning bajarilishi garov bilan ta‘minlanishi mumkin.

Shaxslarning mol-mulkleri turli xil bo‘lishi mumkin. Mol-mulk jismoniy shaxslarga yoki yuridik shaxslarga tegishli bo‘lishi mumkin.

Yuridik yoki jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan har qanday mol-mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy huquqlar garov narsasi bo‘lishi mumkin. Ammo ayrim toifadagi mol-mulklar garov predmeti bo‘lishi mumkin emas. Bunday mol-mulkarga muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan talabnomalar, xususan hayoti va sog‘lig‘iga etkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi talablar, alimentlar to‘g‘risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi taqiqlangan mol-mulklar kiradi. Fuqarolarning undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan ayrim turdagi mol-mulkini garovga qo‘yish ham amaldagi qonuchilik asosida taqiqlanishi mumkin.

Yuridik shaxslarning oborot mablag‘lari bo‘lgan xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, materiallar, tovar zaxiralari, butlovchi buyumlar, tayyor mahsulotlar, muomaladagi tovarlar ham garov munosabatlarida garov narsasi bo‘lishi mumkin.

Muomaladagi tovarlar garovga qo‘yilgan hollarda garov narsasi garovga qo‘yuvchi yuridik, yoki jismoniy shaxsning ixtiyorida qoladi.

Egalik qilish va foydalanish huquqlari, ijarachining huquqlari, majburiyatlaridan kelib chiquvchi boshqa huquqiy talablar, o'zga mulkiy huquqlar garovga qo'yilishi mumkin.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni, shuningdek tabiiy resurslarga nisbatan bo'lgan huquqlarni garovga qo'yish amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan shartlarda amalga oshiriladi.

Tarixiy, madaniy mulklar ularning qimmatbaholigi tufayli yoki davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan garovga berishishi mumkin emas. Bunday mol-mulkning aniq ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan fuqarolarning ayrim turdagi mol-mulkini garovga qo'yish taqiqlanadi.

Garov shartnomasi qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida tuziladi. SHu ma'noda, uning sub'ektlari bo'lib yuridik yoki jismoniy shaxslar mumkin. Boshqacha qilib aytganda, qarzdorning o'zi ham, uchinchi shaxs ham garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin.

Garov munosabatlari shartnoma asosida yuzaga keladi. Garov shartnomasining o'ziga xos xarakterli jihatlari mavjud.

1.1-jadval

Garov shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari³

t/r	Garov shartnomasining o'ziga xos xarakterli jihatlari
1	Garov to'g'risidagi shartnomada kelgusida qo'lga kiritadigan ashyolar va mulkiy huquqlarni garovga berish nazarda tutilishi
2	Garov huquqi garov to'g'risida shartnoma tuzilgan vaqtdan paydo bo'ladi
3	garov to'g'risidagi shartnoma notarial tasdiqlanishi shart bo'lsa notarial tasdiqlangan paytdan garov huquqi paydo bo'ladi
4	Garov shartnomalaridagi majburiyatlar har qanday pul birliklarida, shuningdek milliy valyutada yoki chet el valyutasida ifodalangan bo'lishi

³ Muallif tomonidan tuzilgan

Garov shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari shartnomaning boshqa turlaridan farqli jihatlarini ko'rsatib beradi. Uni tayyorlash. Tuzishning umumiy belgilangan qoidalari mavjud. Garov shartnomasida nazarda tutilishi zarur bo'lgan muhim shartlar mavjud. Garov to'g'risidagi shartnoma yozma shaklda tuziladi. Ipoteka to'g'risidagi shartnoma, shuningdek ko'char mol-mulkni yoki mol-mulkka bo'lgan huquqlarni garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomalar notarial usulda tasdiqlanishi mumkin.

1.2-jadval

Garov shartnomasi shartlari⁴

t/r	Garov shartnomasining shartlari
1	shartnomasi tomonlarning nomi
2	joylashgan manzili (yashash joyi)
3	garov turi
4	garov narsasi
5	garov bahosi
6	garov mohiyati
7	garov miqdori
8	garov bilan ta'minlanadigan majburiyatning bajarilish muddati
9	garovga qo'yilgan mol-mulkning ro'yxati
10	garovga qo'yilgan mol-mulk tomonlarning qaysi birida ekanligi

Garov munosabatlarining sub'ektlaridan biri garovga qo'yuvchi hisoblanadi. Qarzdorning o'zi yoki uchinchi shaxs, ashyoning mulkdopi garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin.

Huquqni garovga qo'yuvchi faqat, garovga qo'yiladigan huquqning egasi bo'lishi mumkin. Ashyoviy huquqlarni garovga qo'yishda ashyoviy huquqning egasidan ruhsat talab qilinadi.

⁴ Muallif tomonidan tuzilgan

Qarz oluvchining majburiyatini ta'minoti sifatida beriluvchi garov miqdori garov talabning amalda qondirish paytidagi hajmini ta'minlaydi. Garov talablari hajmiga asosiy qarz miqdori, jumladan foizlar, aybonalar, ijroni kechiktirib yuborish natijasida etkazilgan zarar to'lanishini, shuningdek garovga oluvchining garovga qo'yilgan ashyoni saqlashga qilgan zarur xarajatlari va undiruv xarajatlari ham kiritiladi.

Bir-nechta shaxslarga taaluqli bo'lgan mol-mulklar barcha mulkdorlarning yozma roziligi bilan garovga qabul qilinadi.

Mulkdor umumiy mulkdagi o'z ulushini garovga qo'yishi mumkin. Buning uchun qolgan mulkdorlarning rozilikini olish shart emas.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 265- moddasida garov turlari va toifalari belgilangan. Fuqarolik kodeksining mazkur moddasiga asosan garov turlari quyidagicha bo'ladi. 3-jadvalga qarang.

3-jadval

Garov turlari⁵

t/r	Garov turlari
1	garov zaklat
2	ipoteka
3	huquqlar garovi

Mulk garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga o'tkazilganda zakalat deb ataladi.

Ko'chmas mulkni garovga qo'yish ipoteka deb taladi. Ipotekaga berilgan mulk garov sifatida majburiyatni bajarilishini kafolatsada, garov sharnomasi amaldagi vaqtda garov predmeti bo'lgan ipoteka garovga beruvchining ixtiyorida bo'ladi. Boshqa so'z bilan aytganda, ipoteka belgilangan mol-mulk garovga oluvchiga berib qo'yilmaydi.

⁵ Muallif tomonidan tuzilgan

Binolar, inshootlar, ko'p qavatli uylardagi kvartiralar, korxonalar, boshqa mulkiy majmualar, yuridik va jismoniy shaxslar mulkida bo'lgan savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari, yer uchastkasi, shuningdek turar joy xonalari ular joylashgan yer uchastkalari, barcha ko'chmas mulk deb e'tirof etiladigan mol-mulklar va boshqa ashyoviy huquqlar ipoteka narsasi bo'la oladi.

Mol-mulk egasining yoki u vakolat bergan organning roziligi bilan yuridik shaxslarga tegishli mol-mulk, mulkiy majmualar sifatida uning tuzilmalari va bo'linmalarining, shuningdek alohida binolar va inshootlarning garovga qo'yilishiga ruhsat beriladi.

Mol-mulkni bevosita idora qilish vakolatiga ega bo'lgan yuridik shaxs moliyaviy-xo'jalik faoliyati davomida daromad olishi mumkin. Olingan daromad hisobidan xarid qilingan mol-mulklar, ashyolar yoki huquqlarni mol-mulkni bevosita idora qilish vakolatiga ega bo'lgan yuridik shaxs garovga berish huquqiga ega bo'ladi.

Ayrim mulklar Davlat ixtiyorida bo'lishi, yoki hech kimning xo'jalik yuritishiga birlashtirilmagan bo'lishi mumkin. Bunday ko'chmas mulklarni garovga berish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qaror qabul qilinadi.

Mol-mulk boshqa shaxsning tasarrufida bo'lib, uni tasarrufdan chiqarish uchun ushbu shaxsdan ro'hsat olish kerak bo'ladigan ipoteka narsalari uchun vakolatli shaxsdan rozilik olish talab yaqilinadi.

Mol-mulk ijaraga berish holatlarida, ijaraga berilgan mol-mulkni ipotekaga berish tartibi ijara shartnomasining shartlariga bog'liq. Ijara shartnomasida mulkni garovga berish nazarda tutilgan bo'lsa, ijaraga beruvchining rozilgisiz ijaradagi mol-mulk garovga berilishi mumkin.

Mol-mulk garovga berishda garov predmetini kimni ixtiyorida vaqtinchalik saqlanishi masalasini hal qilish talab qilinadi. Chunki garov predmeti shartnoma amladagi vaqtda garovga beruvchining hamda garovga oluvchining ixtiyorida ham saqlanishi mumkin. Shunday hollar bo'ladiki, garov narsasi garovga oluvchida turishi huquqi unga garov narsasi berilgan paytda,

agar garov narsasi shartnoma imzolangunga qadar berilgan bo'lsa, shartnoma imzolangan paytda vujudga keladi.

Garov narsasini baholash nihayatda anqlikni talab qiladi. Mol-mulkni bozor bahosi, balans bahosi, tiklanish baholari mavjud. Garovga qo'yiluvchi mol-mulkni baholashda, tomonlar kelishuviga asosan baholovchi takilotni jalb qilishi mumkin.

Garov munosabatlarida garovga oluvchi quyidagi huquqlarga ega⁶:

- garov bilan ta'minlangan majburiyat garov beruvchi tomonidan bajarilmagan taqdirda, qarzni undiruvni garov narsasiga qaratish;
- garov shartnomasi bo'yicha qarzni undiruvni garov narsasiga qaratish huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish;
- garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolganligi va shikastlanganligi uchun sug'urta tovonidan olish;
- davlat boshqaruv organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining xatti-harakatlari yuzasidan, o'z huquqlarini himoya qilish bo'yicha sudda da'vo qo'zg'atish va hujjatlar chiqarish natijasida etkazilgan zarar qoplanishini tegishli organlardan talab qilish;
- garovga qo'yuvchining garov narsasiga mulk huquqi tugatilgan taqdirda, o'z talabini garovga qo'yuvchiga berilishi lozim bo'lgan summadan imtiyozli tartibda qarz summasini undirish;
- qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatning bir qismini bajargan holatda, qarzning qolgan qismini garovdagi barcha mol-mulk hisobidan udirish;
- garov bilan ta'minlangan majburiyatning muddatidan oldin bajarilishini talab qilish yoki undiruvni garov narsasiga qaratish;
- garovga qo'yuvchi majburiyatlarni bajarmaganligi natijasida garovga oluvchiga etkazilgan zarar qoplanishini talab qilish.

Majburiyatni bajarilishi yuzasidan zakalat ta'minotida garovga oluvchining qo'shimcha huquqlari quyidagilardan iborat:

⁶ Ўзбекистон Республикасининг «Гаров тўғрисида»ги Қонуни, 1.05.1998й., “Норма” ҳуқуқий электрон манбаа

- o'ziga berilgan garov narsasidan garovga qo'yuvchiga foydalanishga doir muntazam hisobot taqdim etgan holda foydalanish;

- ashyoni majburiyat to'liq bajarilgunga qadar ushlab turish;

- garovdagi mol-mulkni garovga qo'yuvchining egaligidan talab qilib olish;

- garov narsasining mavjudligini, miqdori, holati va saqlanish sharoitini tekshirish;

- garovga qo'yilgan mol-mulkka nisbatan uning yo'qotilishi yoki shikastlanishi xavfini tug'dirayotgan holatlarni to'xtatilishini talab qilish;

- sug'urta qilish bo'yicha majburiyatini buzgan holatlarda, garov narsasini garovga qo'yuvchi hisobidan, ammo garovga qo'yuvchining manfaatlarini ko'zlab, sug'urta xarajatlarini undan undirib olgan holda sug'urta qilish.

- garovga qo'yuvchi belgilangan majburiyatlarni buzgan hollarda, garovdagi huquqning o'ziga o'tkazilishini sud tartibida talab qilish;

- garovga masala ko'rib chiqiladigan sud ishida uchinchi shaxs sifatida qatnashish;

- garovga qo'yuvchi navbatdagi garov to'g'risidagi qoidalarini buzgan va belgilangan majburiyatlarni bajarmagan hollarda, garov bilan ta'minlangan majburiyatni muddatidan oldin bajarilishini talab qilish.

Garov shartnomasida garovga oluvchining ham majburiyatlari belgilanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- garovga oluvchi o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarishi;

- majburiyat bajarilishi tufayli garov bekor qilinganda yoki majburiyatlar o'zi tomonidan garovdagi mol-mulkning yo'qolishi yoki shikastlanishi xavfi paydo bo'lganda, qo'yuvchining talabiga binoan garovdagi mol-mulkni garovga qo'yuvchiga qaytarib berish;

- garovga oluvchining aybi bilan garov narsasi to'liq yoki qisman yo'qolgani yoki shikastlangani tufayli etkazilgan zararni garovga qo'yuvchiga qoplash.

Garov shartnomasida garovga qo'yuvchining ham belgilangan huquq va majburiyatlarga belgilanadi.

Garovga qo'yuvchining shartnomaviy huquqlariga quyidagilar kiradi:

- majburiyatni muddatidan oldin bajarish;
- garovga oluvchining roziligi bilan garov narsasini boshqa garov narsasi bilan almashtirish;
- garov narsasi zarar ko'rganda uni tiklash yoki uni boshqa teng qimmatli mol-mulkka almashtirish;
- undiruv qaratilgan garov narsasi sotilgunga qadar istalgan vaqtda garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarib, majburiyatni undiruvni to'xtatish;
- garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarzni garovga oluvchining roziligi bilan boshqa shaxsga o'tkazish;
- garov narsasi yo'qolganligi yoki shikastlanganligi tufayli etkazilgan zarar qoplanishini garovga oluvchidan talab qilish;
- garov narsasidan belgilangan maqsadga muvofiq foydalanish;
- garovga oluvchining roziligi bilan garov narsasini boshqa shaxsga foydalanishga berish.

Garovga qo'yuvchining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- garovga oluvchiga garovga qo'yilgan mol-mulkning barcha mavjud garovlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berish;
- garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish va undiruvni garovdagi mol-mulkka qaratish huquqi vujudga kelganida garovga oluvchining talablarini qanoatlantirish;
- garovga qo'yilgan huquq bekor bo'lishiga yoki uning qiymati kamayishiga sabab bo'luvchi xatti-harakatlar qilmaslik;
- garovga qo'yilgan mulkni uchinchi shaxslar tomonidan bo'ladigan tajovuzlar va talablardan himoya qilish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rishi.

Garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarmagan taqdirda yoki lozim darajada bajarmaganda garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratiladi.

Undiruv qaratilgan garovdagi mol-mulkni realizatsiya qilish kimoshdi savdosida sotish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, garov bu, - majburiyatni bajarilishini kafillovchi ta'minot. Garovlar ipoteka, garov zaklati va huquqlar garovi ko'rinishlarida bo'ladi. Garov munosabatlari garovga qo'yuvchi va garovga oluvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida vujudga keladi. Garovga qo'yilgan mol-mulk qarzdorning majburiyati belgilangan muddatda bajarilmagan hollarda sotuvga qo'yiladi. Sotilgan mol-mulk qarzdorning qarzini qoplash uchun yo'naltiriladi. Qarzdor o'z zimmasiga olgan majburiyatni garov narsasi sotilishidan oldin ixtiyoriy ravishda bajarganda garovga olingan mol-mulk egasiga qaytariladi. Garov munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "garov to'g'risida"gi Qonun va boshqa amaldagi qonunchilik asosida tartibga solinadi.

II BOB. O‘ZBEKISTONDA GAROVGA QO‘YILGAN MOL-MULKNI SUG‘URTALASHNING AMALGA OSHIRISH TARTIBI VA TAHLILI

2.1. Garovga qo‘yilayotgan mol-mulk sug‘urtasidagi sug‘urta ob’ekti va sub’ektlari

Garov sug‘urtasi mulkiy sug‘urta tarmog‘ida amalga oshiradi. Garov sug‘urtasida sug‘urta qildiruvchi, naf oluvchi, qar beruvchi, qarz oluvchi, sug‘urta syurveyeri, adjaster, sug‘urta agentlari, sug‘urta brokerlari, baholovchi tashkilot qatnashadi. Sug‘urtalovchi tegishli turdagi sug‘urtani amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining Litsenziyasiga ega bo‘lgan va sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta to‘lovni (sug‘urta puli) to‘lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkilotidir. U garov sug‘urtasi shartnomasi bo‘yicha, sug‘urta mukofoti evaziga, sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta qoplamasi to‘lab beradi.

Sug‘urta mukofotini garov sug‘urtasida sug‘urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxs tomonidan sug‘urtalovchiga, garovga qo‘yilayotgan mulkni sug‘urtalash uchun sug‘urta shartnomasiga asosan milliy yoki xorijiy valyutadagi pul mablag‘i to‘laydi. Sug‘urta mukofotini to‘lovchi uchinchi shaxs sug‘urta qildiruvchi bilan bog‘liq shaxs hisoblanadi. Sug‘urta muokoftining miqdorini sug‘urta aktuariylari, anderrayterlar tomonidan hisoblab chiqiladi. Sug‘urta mukofotining miqdori sug‘urtaga olinuvchi riskning ro‘y berish ehtimoli asosida hisoblanuvchi sug‘urta tarifining miqdoriga bog‘liq. Sug‘urta tarifining asosini brutto-stavka tashkil qiladi. Brutto tarif stavkasi ikki qismdan iborat: netto-stavka va yuklama. Netto stavkanining miqdorini hisoblashda garov sug‘urtasi shartnomasi bo‘yicha oldingi yillarda yuz bergan sug‘urta hodisasi va hodisalar keltirgan zararlar inobatga olinadi. Garov sug‘urtasi tarifi stavkasi strukturasida yuklama sug‘urta qildiruvchining ish yuritish xarajatlarini moliyalashtirish uchun sarflanadi. YUklamaning quyidagi tarkibi mavjud:

- sug'urta tashkilotini tashkil qilish bilan bog'liq tashkiliy xarajatlar;

- sug'urta shartnomalarini tuzish, sug'urtalanuvchilarini jalb qilish bilan bog'liq akvizatsion xarajatlar. Garov sug'urtasida akvizatsion xarajatlarning asosiy qismini aget va boshqalarga to'langan komission mukofotlar tashkil qiladi;

- hisob - g'azna xizmati bilan bog'liq bo'lgan inkasatsion xarajatlar. Bundan tashqari ushbu xarajat toifasiga hisob registrari, blankalar tayyorlash, kvitansiyalar tayyorlash xarajatlari ham kiradi;

- zararlarni tartibga solish, sud xarajatlari, sug'urta xolati yuz bergan joyga borish xizmati safari xarajatlari ekspert xizmatlari uchun to'lov xarajatlari likvidatsion xarajatlar tarkibiga kiritiladi;

- boshqaruv xarajatlari umumiy boshqaruv xarajatlariga va mulkni boshqarish xarajatlariga guruhlanadi. Xususan boshqaruv xarajatlari mehnat xaqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urta uchun ajratmalar, xo'jalik va kanslyar xarajatlar, transport, aloqa, arenda, ammortizatsiya xarajatlarini o'z ichiga oladi. Garov sug'urtasida sug'urta mukofoti sug'urta summasiga nisbatan foyizda yoki mutloq summada belgilanadi.

Garov sug'urta shartnomalarida belgilanuvchi sug'urta summasi sug'urtachi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida, kelishuv asosida belgilanadi. Sug'urta summasining maksimal miqdori garov predmetining haqiqiy qiymatidan oshib ketmasligi kerak. YUqorida taakidlanganidek, garov predmetining haqiqiy qiymati balans qiymati, yoki qayta baholochi tashkilotlarining xulosasi asosida aniqlanadi. Garov predmetining haqiqiy qiymati uning joylashgan joyida va shartnoma imzolanish vaqtida aniqlanadi. Garov predmetini zarar ko'rish, yo'q bo'lishdan sug'urtalashda foydalaniluvchi haqiqiy qiymatga baho berishda quyidagi turdagi qiymatlardan foydalaniladi:

- garov predmetining tiklanish qiymati;

-garov predmetining tiklanish qiymatidan eskirish qiymatini ayirish natijasida qolgan qoldiq qiymat. Odatda, garov predmetini sug'urtalashda sug'urta summasi uning haqiqiy qiymatidan oshib ketmasligi kerak.

Sug'urta qildiruvchi yoki garovga qo'yuvchiga tegishli bo'lgan mulkning doimiy saqlanish joyida toshqin, bo'ron, dovul, jala, sel kelishi, ko'chki, do'l, qalin qor yoeishi, tuproqning cho'kishi, o'pirilishi, yer osti suvlarining ta'siri, chaqmoq urishi, zilzila, yong'in, portlash, o'g'irlash, uchinchi shaxslarning qastdan qilgan noqonuniy harakati tufayli nobud bo'lishi yoki zarar etkazilishi natijasida zararlanishi garov sug'urtasi bo'yicha sug'urta hodisasi hisoblanadi. Sug'urta hodisasi natijasida sug'urta qoplamasi to'lanadi. Sug'urta qoplamasi ayrim adabiyotlarda sug'urta tovonini ham deb ataladi.

Sug'urta tovonini sug'urta hodisasi natijasida garovga qo'yilgan mulkka etkazilgan zararni qoplash uchun sug'urtalovchi tarafidan sug'urta puli chegarasida sug'urta qildiruvchiga, garov qo'yuvchiga yoki naf oluvchiga to'lanadigan pul mablag'i.

Albatta garov sug'urtasida ham boshqa sug'urta turlaridagi kabi sug'urta qildiruvchi ishtirok etadi.

Sug'urta qildiruvchi garovga qo'yilayotgan mulkni sug'urtalash bo'yicha sug'urta shartnomasini tuzgan va sug'urta mukofotini to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar - korxona, muassasa va tashkilotlar, faoliyat yuritayotgan barcha turdagi yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari va chet el korxonalari, vakolatxonalari bo'lishi mumkin. Garov predmetini sug'urta qildiruvchi bo'lib nafaqat mulk egasi, balkim, garov predmetini saqlanishida manfaatdorlar bo'lgan shaxslar ham hisoblanishi mumkin.

Sug'urta shartnomasida uning foydasiga tuzilgan va belgilangan sug'urta tovonini oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs naf oluvchi hisoblanadi. Garov sug'urta shartnomasida naf oluvchining shaxsi mavjud bo'lmasa, "Ko'rsatuvchiga" sug'urta polisi beriladi⁷.

⁷ Грищенко Н. Б. Основы страховой деятельности: Учеб. Пособие. – М.: Финансы и статистика, 2006. -352 с(88с.)

Qarz beruvchi O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi yuridik shaxslar. Garov sug'urtasida bank muassslari qarz beruvchi sifatida qatnashishi mumkin. Respublikamizda garov sug'urtasi bilan "O'zagrosug'urta" DASK regulyar tartibda shug'illanadi. Garov sug'urtasida "Agrobank" Aksiyadorlik tijorat banki qarz beruvchi bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotning agrar sektorini yanada barqaror rivojlantirish, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan chuqurlashtirib borish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash, uning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilariga qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi zamonaviy korxonalarni jadal barpo etish, yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tadbiq qilish hamda ichki bozorni mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishga yo'naltirilgan keng turdagi bank xizmatlarini ko'rsatish maqsadida "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki tashkil qilingan. Bundan tashqari boshqa tijorat banklari ham garov ta'minoti ostida kreditlar berishlari mumkin.

Bankdan kredit oluvchi shaxslar qarz oluvchilar hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, qarz oluvchi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish maqsadida, ma'lum bir faoliyat uchun pul mablag'larini oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxslardir.

Sug'urta syurveyeri Sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish va tekshirish, barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash, tekshirilayotgan sug'urta ob'ekti bo'yicha xulosa tuzish xizmatlarini ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxasislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir. Garov sug'urtasida syurveyerlar sug'urtalanishi rejalashtirilgan garov predmetini ko'zdan kechiradi, sug'urta ob'ektiga xavf soluvchi risklarni o'rganadi.

Garov sug'urtasida adjasterga ham alohida o'rin ajratilgan. Baxsiz hodisa, tabiiy ofatlar, yong'in va shunga o'xshash risklarning ro'y berishi natijasida

sugʻurtalangan garov predmetiga zarar etganda adjaster sugʻurta hodisasi yuz bergan joyga boradi.

Xullas, adjaster sugʻurta hodisasi yuz berganidan keyin sugʻurta obʻektini koʻzdan kechirish va tekshirish, faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil etish, sugʻurta obʻektining shikastlanish sabablarini va sugʻurta hodisasi mavjudligini aniqlash, sugʻurta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash, toʻlanishi kerak boʻlgan sugʻurta toʻvoni summasini aniqlash, hodisa boʻyicha xulosa tuzish xizmatlarini koʻrsatuvchi, oʻz shtatida tegishli mutaxasislarga ega boʻlgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega boʻlgan jismoniy shaxs hisoblanadi.

Garov sugʻurtasini amalga oshirishda rieltorlik firmalari ham qatnashishi mumkin. Rieltorlik firmalari koʻchmas mulk birjasida vositachilik faoliyati bilan shugʻillanishi uchun litsenziyaga ega boʻlishi talab qilinadi. Ular yuridik shaxs maqomiga ega boʻlib, professional vositachilar hisoblanadi. Rieltorlar koʻchmas mulkni oldi-sotti jarayoniga yordam beradi, bozorning boshqa ishtirokchilarining topshirigʻiga asosan uy-joylarni sotuvi taʼminlanadi⁸.

Uy-joyni sotuvchilari – oʻzining xususiy mulkida boʻlgan uy-joylarni sotuvchi yuridik va jismoniy shaxslar. Ayrim holatlarda, uy-joy sotuvchilar boshqa shaxslarning topshirigʻiga asosan ham koʻchmas mulk sotuvi bilan shugʻilanishi mumkin.

Uzoq muddatli ipoteka krediti dasturi asosida uy-joy qurilishi bilan shugʻillanuvchi qurilish tashkilotlari ham garov munosabatlarida ishtirok etadi.

Ipoteka kreditining ikkilamchi bozori operatorlari - bu kreditorlarni qayta moliyalashtiruvchi maxsus ixtisoslashgan tashkilot. Ushbu tashkilot belgilangan ipoteka kreditlariga oʻrnatilgan talab va standartlar asosida ipoteka qimmatli qogʻozlarini chiqaradi, uy-joyni kreditlash sohasiga sarmoyadorlarni jalb qiladi, kreditorlarga kreditlashning ratsional shakllarini joriy qilishga

⁸ Grishenko N. B. Osnovi straxovoy deyatelnosti: Ucheb. Posobie. – M.: Finansi i statistika, 2006. -352 s(110s.)

yordam beradi, qarz oluvchilar uchun maqbul bo'lgan va kam riskli kredit berish shakllarini ishlab chiqishga ko'maklashadi.

Garov sug'urtasi shartnomasini tuzishda qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan qredit shartnomasi va uning mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit shartnomasi qarz beruvchidan ma'lum bir muddatga kredit olish uchun qarz oluvchi bilan oralarida tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

Kredit olish uchun ta'minot sifatida qo'yiladigan garov predmeti baholash tashkiloti tomonidan uning haqiqiy qiymati baholanadi va baholash dalolatnomasi tuziladi. Baholash tashkilotlari professional tashkilot hisoblanadi. Ular baholash ishlari bilan shug'ilanishi uchun ruhsat olishlari talab qilinadi.

Boshqacha qilib aytganda, baholash dalolatnomasi garovga qo'yilayotgan mulkni baholanganligi haqidagi qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtalarida tuzilgan baholash hujjati.

Shundan so'ng, kreditni qaytarilishini ta'minlash maqsadida garovga qo'yilgan mulk to'g'risidagi qarz beruvchi va qarz oluvchi yoki garovga qo'yuvchi o'rtalarida garov shartnomasi tuziladi.

Garov sug'urtasida sug'urta polisi sug'urta shartnomasini tuzilganligi, sug'urtachi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida sug'urta munosabatlari o'rnatilganligini tasdiqlovchi hujjat. Odatda, sug'urta mukofoti to'langandan so'ng sug'urta polisi beriladi. Sug'urta polisi sug'urtachi tomonidan sug'urta qildiruvchiga yoki Garovga qo'yuvchiga beriladi.

Sug'urta shartnomasining yoki sug'urta polisining amal qilish muddati sug'urta muddatini tashkil qiladi.

Fors-major holati favqulodda va oldindan ko'rilmagan xarakterda bo'lib, tomonlar majburiyatlarini qabul qilgandan keyin kelib chiqadi, hamda ularning xohish irodasiga bog'liq bo'lmay, aqliy tadbirlar bilan uning oldini olib bo'lmaydigan holat hisoblanadi.

Garovga qo'yilayotgan binolar, imoratlar, inshootlar, asosiy va ishlab chiqarish vositalari, texnologiya va tovarlar, asbob-uskunalar, tugallanmagan

kapital qurilish ob'ektlari, tayyor mahsulot, xom ashyo, pul, oltin quyilmasi, qimmatli qog'ozlar, toshlar, san'at asarlar, drenajlar, sug'orish tarmoqlari, ko'priklar, kanallar, yo'llar, yer osti yo'llari(tunnel), temir yo'llari, dambalar, va boshqa mol-mulklar sug'urta hodisasi tufayli nobud bo'lishi yoki zararlanishi sug'urta ob'ektlari hisoblanadi.

Garvo sug'urtasini amalga oshirish jarayoni murakkab hisoblanadi. Uni amalga oshirishda turli xil faoliyat vakillari bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishtirok etadi. Garov sug'urtasida bank muassasi, rieltorlik tashkilotlar, uy-joyni sotuvchilari, ipoteka kreditining ikkilamchi bozori operatorlari, sug'urtachilar, qarz oluvchilar va boshqalar ishtirok etadi.

2.2. O'zbekistonda garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urtalashni amalga oshirish tartibi va tahlili

Hozrgi kunda sug'urta kompaniyalari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning garovga qo'yilayotgan mulklari umumiy sug'urta tarmog'ining 8 va 9-klasslariga asosan sug'urtalanadi. Ushbu sug'urta turida sug'urta shartnomasi yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuziladi, sug'urta shartnomasini tuzish uchun bank tomonidan rasmiylashtiriladigan kredit shartnomasi va baholash dalolatnomasi, mulk to'g'risidagi ma'lumotlar sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur bo'ladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga belgilangan shaklda yozma ravishda ariza bilan murojat qiladi va bunda sug'urta puli sug'urta shartnomasi tuzilayotgan vaqtdagi bozor narxidan kelib chiqqan holda, milliy valyutada sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi hamda naf oluvchining kelishuviga asosan belgilanadi, sug'urta mukofoti esa ushbu sug'urta turini amalga oshirayotgan sug'urta kompaniyasi boshqaruvinining qarori bilan tasdiqlangan sug'urta tarifi va sug'urtalanuvchining arizasida ko'rsatilgan sug'urta puli, sug'urta muddatiga ko'ra hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalari tomonidan garovga qo'yiladigan mol-mulkni sug'urtalash amalga oshirilayotgan sug'urta shartnomasi kompaniya tomonidan

ishlab chiqilgan qoidalarga asosan tuziladi. Sugʻurta kompaniyasining qoidalari Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqildi va sugʻurta kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar garovga qoʻyilgan mol-mulkni zarardan, olovdan va tabiiy ofatlardan sugʻurta qilish shartlarni belgilaydi.

Garovga qoʻyilayotgan mol-mulkni sugʻurtalashda sugʻurta faoliyatining professional ishtirokchilari sugʻurta faoliyatining subʻektlari xisoblanadi. Sugʻurtalovchilar, sugʻurta vositachilari xamda boshqa xuquqiy va jismoniy shaxslar sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari xisoblanadi.

Garov sugʻurtasida Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga zid boʻlmagan mol-mulkka egalik qilish, foydalanish va boshqarish bilan bogʻliq mulkiy manfaatlar sugʻurtalash obʻektlari xisoblanadi. Garoaga qoʻyilgan mol-mulkning sugʻurtasi amalga oshirilayotgan vaqtda sugʻurta kompaniyalari tomonidan sugʻurtalanuvchiga yoki naf oluvchiga sugʻurtalangan mol-mulkning jismoniy yoʻqolishi va shikastlanishidan koʻrilgan toʻgʻridan-toʻgʻri zararlarni quyidagilar natijasida yuzaga kelgan boʻlsa qoplaydi:

- yongʻin, portlash, boʻron, dovul, jala, erning koʻchishi, erning choʻkishi, erning surilishi, yer osti suvlarining xarakati, sel, chaqmoq urishi, zilzila;

- doʻl, koʻp qor yogʻishi yoki muzlash; qulfni sindirib (buzib) qilingan oʻgʻrilik; mashina va mexanizmlarning, qurilish materiallari va qurilmalarning, shuningdek uchuvchi jismlarning qulab tushishi; isitish tizimlari, suv oʻtkazgich va kanalizatsiya tarmoqlarining buzilishi; ichki santexnika tizimlarining yorilishi; uchinchi shaxslarning qonunga xilof ravishda qasddan sodir etgan xatti-xarakatlari.

Garovga qoʻyilgan mol-mulkning sugʻurtasida quyidagilar natijasida sodir boʻlgan xodisalar sugʻurta xodisasi xisoblanmaydi:

- sugʻurtalanuvchi, nafdor yoki ular vakillarining belgilangan yongʻindan xavfli yoki portlovchi narsa va buyumlarni saqlash qoidalari va aloxida mulk turlari bilan muomila qilishda belgilangan boshqa qoidalarni qasddan buzishi;

- oʻz oʻzidan yonish, achish, chirish yoki boshqa tabiiy xususiyatlar;

- mol-mulkning o'g'irlanishi, uchinchi shaxslar tomonidan qonunga zid, qasddan sodir etilgan xarakatlar natijasida yo'q qilinishi yoki shikastlanishi, agar ushbu xolat tegishli tashkilotlarga xabar qilinmagan, shuningdek bu tashkilotlar tomonidan ushbu xodisa tasdiqlanmagan bo'lsa;

- kuya, parazit, termit yoki boshqa xashoratlar, ko'rinmagan nuqsonlar, tabiiy eskirish, chirish, mog'orlash, ob-xavo namligi natijasida keltirilgan shikastlanish, buzilish va zararlar;

- sug'urtalanuvchi yoki ularning vakillariga ma'lum bo'lgan va sug'urtalovchining javobgarligi kuchga kirishidan oldin mavjud bo'lgan mol-mulkning nuqsonlari;

- sug'urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan sug'urtalangan mol-mulkdan foydalanish qoidalari buzilishi natijasida sodir bo'lgan zararlar;

- doimiy mavjud bo'lgan foydalanish omillari (eskirish, korroziya)ning ta'siri va ob-xavo omillari ta'sirida asta-sekin zararlanishlar yoki sug'urtalangan buyumlarning ishlatilmasligi;

- mol-mulkni tashish, shuningdek sug'urta shartnomasida ko'rsatilmagan joyda saqlanishi;

- sug'urtalanuvchining sug'urtalovchiga zararlangan buyumlarni yoki ularning qoldiqlarini, zararlangan buyumlarning butkul yo'q bo'lib ketgan xollarini istisno qilgan xolda taqdim etishdan bosh tortishi;

- sug'urta shartnomasida qayd etilmagan boshqa barcha xodisalar;

- loyixa-smeta xujjatlarida ko'rsatilmagan ishlarning qisman yoki butunlay to'xtatilishidan zararlar;

- ko'rsatilgan mol-mulkka rasman birlashtirilmagan va ishlash uchun maxsus o'qitilmagan shaxslar tomonidan mol-mulklardan foydalanish va xizmat ko'rsatish natijasida ko'rilgan zararlar;

- yoqilg'i-moylash materiallari, ximikatlar (kimyoviy moddalardan tayyorlangan moddalar), muzlatish suyuqliklari va boshqa yordamchi materiallarning yo'qolishi yoki zararlanishidan ko'rilgan zararlar;

- qurilish texnikasi va transport vositalarining tashqi omillarga bog'liq bo'lmagan ichki buzilishlari natijasida shikastlanishidan ko'rilgan zararlar;
- sug'urta xodisasi sodir bo'lgan vaqtda yoki undan so'ng mulkning o'g'rilanishidan ko'rilgan zararlar;
- loyixa - smeta xujjatlarida ko'zda tutilmagan tajriba va tadqiqot ishlari;
- yadroviy portlash, radiatsiya yoki radioaktiv zaxarlanish ta'siri;
- xarbiy xarakatlar, manyovrlar yoki boshqa xarbiy tadbirlar.

Har qanday sug'urta turlaridagi kabi ushbu sug'urta turida ham sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida bir qancha huquq va majburiyatlar yuzaga keladi. Sug'urtalanuvchi o'z navbatida sug'urta muddati davomida sug'urta masalalari bo'yicha sug'urtalovchidan maslaxatlar olish, sug'urta xodisasi yuz berganda sug'urtalovchidan sug'urta qoplamasi olish, sug'urta xodisasi yuz berganda mustaqil ekspertiza o'tkazilishini talab qilish, barcha mulkni va aloxida ob'ektlarni qo'shimcha sug'urta qilish, sug'urtalovchi bilan kelishgan xolda sug'urta shartnomasiga qo'shimcha yoki o'zgartirishlar kiritish hamda sug'urtalovchini albatta ogoxlantirgan xolda shartnomani muddatdan avval bekor qilish sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda sug'urta mukofotini to'lash, sug'urta ob'ekti xaqida sug'urta kompaniyasiiga to'liq va aniq ma'lumotlar berish, sug'urta ob'ektini ko'rib chiqishga imkoniyat yaratish, sug'urtalovchiga tavakkalchilikdagi sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lgan taqdirda darxol xabar berish, talabga ko'ra, sodir bo'lgan xodisalar xaqida tegishli davlat organlariga darxol xabar berish, sodir bo'lgan voqea yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atilganligi, to'xtatilganligi yoki ishni sudga berilganligi xaqida tergov organlari tomonidan tasdiqlangan qarorlarning nusxasini taqdim qilish, sug'urtalovchiga shikastlangan mulkni ko'zdan kechirish uchun imkoniyat yaratish yoki shikastlangan qismlarni su'ratga yoki videotasvirga olib berish va tiklash ishlari boshlangunga qadar Sug'urtalovchi bilan keyingi xatti-xarakatlarni kelishib olish va sug'urtalangan mulkni shartnomaning butun amal qilish muddati davomida xamda sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urtalangan

mulk xaqida taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirishga sug'urtalovchiga imkoniyat yaratish kabi huquq va majburiyatlarga ega.

Garov sug'urtasida sug'urta kompaniyalarining huquq va majburiyatlar quyidagilar orqali nomoyon bo'ladi:

- shartnoma muddati davomida sug'urtalangan ob'ektni axvoli va qiymatini xamda sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urtalangan mulk xaqida taqdim etilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish;

- sug'urta xodisasi yuz berganda sug'urtalanuvchining xabar berishini kutmasdan sug'urta xodisasi oqibatida ko'rilgan zararlarni ko'rib chiqish va baxolashni amalga oshirishni boshlash;

- sug'urta xodisasi yuz berganda tavakkalchilik darajasini ifodalovchi qo'shimcha xujjatlarni talab qilish;

- sug'urta xodisasi sodir bo'lgani va sabablarini tasdiqlovchi kerakli xujjatlar va to'liq ma'lumotga ega bo'lmaguncha xamda voqea yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atilganida tegishli tashkilotlar tomonidan tegishli qaror qabul qilingunga qadar sug'urta qoplamasi to'lashni keyinga surish;

- sug'urta tavakkalchiligining darajasi oshishiga olib keladigan sabablar xaqida ogoxlantirilgan taqdirda sug'urta shartlarni o'zgartirishi;

- sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda sug'urta polisini berish va sug'urta shartnomasi tuzishda asoslanilgan sug'urtalash qoidalari bilan tanishtirish;

- sug'urta qoplamasi to'lanmaydigan bo'lsa, to'lamaslik xaqida qaror qabul qilinganidan boshlab 15 kun mobaynida sug'urtalanuvchini xabardor qilish.

- sug'urtalanuvchi va nafdor shaxslar bilan munosabatlardagi maxfiylikni ta'minlash.

Garovga qo'yilayotgan mulkni sug'urtalash turiga asosan, sug'urtalanuvchi sug'urta xodisasi yuz bergani xaqida xabar topganidan so'ng darhol bu xaqda sug'urtalovchini yoki uning vakilini xabardor qilishi kerak. Agar shartnomada sug'urta xodisasi yuz berganini xabar berishning muddati va

usullari belgilangan bo'lsa, u xolda sug'urtalanuvchi xabar berishni shartnomada belgilangan muddatda va usulda amalga oshirishi kerak. Xuddi shunday majburiyat nafdor shaxsga xam yuklatiladi, agar u uning foydasiga tuzilgan shartnoma yuzasidan sug'urta qoplamasiga da'vo qilish xuquqidan foydalanmoqchi bo'lsa. Ushbu majburiyat bajarilmasa, sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'lamaslikka xaqlidir.

Garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urtasini amaliy taxlil qilishda uni biron-bir kompaniya misolida ko'rib chiqish lozim. Bu borada, bir necha yillar mobaynida O'zbekiston respublikasi sug'urta bozorida o'z o'rniga ega bo'lgan "Kapital Sug'urta" AJ sug'urta kompaniyasi misolida nazar tashlab ko'ramiz. "Kapital Sug'urta" AJ sug'urta kompaniyasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mustaqil yuridik shaxs maqomi hamda mustaqil balansiga ega bo'lgan va o'z faoliyatini to'liq ho'jalik xisobi, o'z-o'zini ta'minlash asosida amalga oshiradi. Hozirgi kunda "Kapital Sug'urta" AJ sug'urta kompaniyasi o'zining o'n to'rtta xududiy filialiga ega. 2014 yil yakuni natijalariga ko'ra, "Kapital Sug'urta" AJ sug'urta kompaniyasi sug'urta mukofotlarini to'lash bo'yicha sug'urta bozorida 4-o'rinni egalladi, kompaniya tomonidan 26 622,1 mln. so'm sug'urta mukofoti to'plandi. Ushbu ko'rsatkichlarni 2.1- jadval orqali ham keltirish mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozori jadal sur'atlarda ivojlanib, 2014 yilda sug'urta bozorida 31 ta sug'urta tashkiloti, 4 ta sug'urta brokeri, assistans, adjaster va syurveyrlar 18 tani tashkil etib, aktuariylar esa 2 tani tashkil etdi. Sug'urta tashkilotlari bo'linmalari 993 tani, sug'urta agentlar soni esa 5,5 taga etdi. 2014 yilda sug'urta bozorida faoliyat yurituvchi jami sug'urta tashkilotlari tomonidan 439 134,1 mln.so'mni tashkil etib, sug'urta qoplamalari hajmi esa 74 632,6 mln. so'mni tashkil etdi.

**SUG'URTA BOZORI 2014 yil yakunlari bo'yicha
sug'urta kompaniyalari kesimidagi ma'lumot**

(mln. so'm)

T/r	Sug'urta tashkiloti nomlanishi	Sug'urta mukofotlari	O'zgarishi %da	Sug'urta to'lovlari	O'zgarishi %da
1	DASK "O'zagrosug'urta" (AJ)	83 076,7	134,7	13 979,3	166,8
2	"O'zbekinvest" EIMSK	60 710,4	137,6	12 710,2	47,4
3	DASK "Kafolat" (AJ)	42 133,4	135,3	9 301,9	146,5
4	"Kapital Sug'urta" AJ	26 622,1	142,7	4 206,0	131,9
5	"Alfa Invest" MCHJ ST	25 736,7	124,0	2 577,4	131,5
6	"Alskom" AJ SK	24 724,0	133,3	2 020,2	158,5
7	"Asia Inshurans" MCHJ SK	23 004,6	66,2	3 263,2	160,5
8	"Temiryo'l-Sug'urta" SK QK MCHJ	17 594,7	128,5	921,2	96,6
9	"UVT Inshurans" MCHJ SK	17 227,2	113,9	1 175,4	83,7
10	"O'zbekinvest Hayot" SHXJ SK	16 463,5	152,5	9 355,8	157,0
11	"Ingo-Uzbekistan" SAJ	13 168,3	143,9	2 368,8	119,7
12	"Agro Invest Sug'urta" AJ	11 451,7	309,4	5 379,2	475,7
13	"Gross Insurance" MCHJ	8 642,7	170,9	327,9	266,1
14	"Euroasia Insurance" MCHJ QK SK	7 416,0	197,1	189,1	117,8
15	"Universal-Sug'urta" AJ	7 291,6	102,9	878,4	57,5
16	"Sug'urta O'z" MCHJ SK	6 715,5	107,1	236,8	112,7
17	"Xalq Sug'urta" MCHJ SK	5 745,5	85,6	1 219,2	131,4
18	"ISHONCH" BSK MCHJ	5 326,1	112,1	1 265,4	156,3
19	"Global Insurance Group" MCHJ ST	4 134,4	218,5	34,9	30,7
20	"Mega Invest Insurance" MCHJ SK	4 065,1	172,1	242,2	1 215,7
21	"Hamkor Sug'urta" MCHJ	3 885,3	198,7	214,4	111,8
22	"Silk Road Insurance" AJ SK	3 834,6	168,1	303,3	172,3

Davomi

T/r	Sug'urta tashkiloti nomlanishi	Sug'urta mukofotlari	O'zgarish i %da	Sug'urta to'lovlari	O'zgarish i %da
23	"Kafil sug'urta" MCHJ	3 595,0	140,5	33,8	50,4
24	"DD-General Insurance" MCHJ	3 049,4	134,5	395,2	131,2
25	"Garant Insurance Group" SHSK	2 912,3	152,8	95,5	346,0
26	"Asko-Vostok" MCHJ	2 701,9	133,6	37,6	975,0
27	"Temiryo'l Life" MCHJ QK	2 692,3	-	612,7	-
28	"Alfa Life" SHXJ ST	2 351,6	226,5	1 106,1	153,0
29	"Madad" OAJ	1 872,0	140,3	34,4	445,5
30	"Unipolis" MCHJ	988,6	50,4	147,0	132,2
31	"CHartis Uzbekistan" MCHJ QK SK	1,1	0,1	-	-
	Jami:	439 134,1	129,7	74 632,6	111,5

2.2-jadval

"Kapital Sug'urta" AJ tomonidan 2014 yilning har bir choragi bo'yicha garov sug'urtasi yuzasidan olib borgan faoliyat ko'rsatkichlari

2014 yilning 1-chorak xisoboti		
tuzilgan shartnomalar soni (dona)	sug'urta summasi (ming so'm)	kelib tushgan sug'urta mukofotlari
586	45 351 842,1	127 654,4

2014 yilning 6 oylik xisoboti		
tuzilgan shartnomalar soni (dona)	sug'urta summasi (ming so'm)	kelib tushgan sug'urta mukofotlari
1220	104 198 118,0	299 151,5

2014 yilning 9 oylik xisoboti		
tuzilgan shartnomalar soni (dona)	sug'urta summasi (ming so'm)	kelib tushgan sug'urta mukofotlari
1744	160 025 477,2	491 684,0

2014 yil xisoboti		
tuzilgan shartnomalar soni (dona)	sug'urta summasi (ming so'm)	kelib tushgan sug'urta mukofotlari
2143	209 564 231,4	636 880,9

2.3-jadval

"Kapital Sug'urta" AJ tomonidan 2011-2014 yillarda to'plangan sug'urta mukofotlari va to'lab berilgan sug'urta qoplamalari hajmi⁹

№	Yillar	Kompaniya tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi (mlrd.so'm)	Kompaniya tomonidan to'lab berilgan sug'urta qoplamalari hajmi (mlrd.so'm)
1	2011	10,1	1,8
2	2012	13,7	2,3
3	2013	18,8	3,2
4	2014	26,6	4,2

2.2.-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki "Kapital Sug'urta" AJ tomonidan 2011-2014 yillarda to'plangan sug'urta mukofotlari mukofotlari o'sish tendensiyasi kuzatilgan. "Kapital Sug'urta" AJ sug'urta tashkiloti sug'urta bozorida sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha etakchi sug'urta tashkilotlaridan biri bo'lib, 2010 yilda kompaniya sug'urta bozorida mukofotlarni to'plash bo'yicha 8-o'rinni egallagan bo'lsa, bugungi kunga kelib ushbu faoliyat bo'yicha 4-o'rinni egallamoqda. Bu shundan dalolat beradiki kompaniya yildan-yilga sug'urta bozorida mijozlarni jalb etish maqsadida o'z faoliyatini rivojlantirishga erishmoqda. Kompaniya faqatgina sug'urta mukofotlarini to'plash balki o'z mijozlari ishonchini qozonish maqsadida sug'urta to'lovlarini to'lab berish hamda kelib tushgan sug'urta da'volarini o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash borasidagi faoliyatiga ham katta e'tibor qaratmoqda. Jadval ma'lumotlariga asosan kompaniya tomonidan 2011-2014 yillarda to'lab berilgan sug'urta qoplamalari yildan –yilga oshib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan

III. BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA GAROVGA QO'YILAYOTGAN MOL-MULKNI SUG'URTALASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

3.1. Sug'urta tashkilotlari tomonidan garov sug'urtasida yuzaga kelgan da'volarni ko'rib chiqilishi

Har qanday sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasini tuzishdan maqsadi – sug'urta holati yuz berganda zarar uchun kompensatsiya olishdir. Garov sug'urtasida ham sug'urta qildiruvchi garov predmeti zarar ko'rganda, yoki nobud bo'lganda sug'urta qoplamasini olishni maqsad qilib qo'yadi. Sug'urta shartnomasi tuza turib sug'urtachi sug'urta holati yuz berganda sug'urta qoplamasi to'lashni va'da qiladi. O'z navbatida sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs va naf oluvchi sug'urtachidan uning zimmasiga olingan zararni qoplash majburiyatni bajarishni talab qiladi. Sug'urta qoplamasini talab qilish to'g'risidagi sug'urta qildiruvchining ariza berishi sug'urta da'vosi deb ataladi¹⁰. Garov sug'urtasida sug'urta holati yuz berganda sug'urta qoplamasi to'lab beradi.

Garov sug'urtasida da'volarni tartibga solishning asosiy tamoyillaridan biri – sug'urta qoplamasi olish uchun bildirilgan talab asosli va isbotlangan bo'lishi zarur. Sug'urta amaliyotida barcha sug'urta da'volari ham asosli va isbotlangan bo'lmaydi va asossiz sug'urtachiga talablar qo'yiladi.

Garov sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta holati yuz berganda sug'urtalanuvchi va naf oluvchi garov predmetiga etkazilgan zararni sug'urtachidan qoplashni maqsad qiladi. Zarar yuz bergan xolatlarda sug'urtalanuvchi yoki naf oluvchi sug'urta qoplamasini sug'urtachidan olish uchun sug'urta shartnomasida belgilangan huquq va majburiyatlar asosida ish yuritishi zarur. Zarar yuz bergan xolatlarda sug'urtalanuvchi yoki naf oluvchi quyidagilarga majbur:

¹⁰ Теория И практика црахования. Учебное пособие –М.: Анкил, 2003 -704с(453с.)

- garov predmetiga zarar etganligi xaqida ma'lum bo'lgan vaqtdan kechiktirmasdan zarur bo'lgan choralarni qo'llash. Xususan, sug'urta xodisasini ro'y berishi oldini olish, zarar miqdorini kamaytirish bo'yicha choralar qabul qilish;

- sug'urta xolati ro'y berganligi to'g'risida tegishli mutasaddi idoralarga xabar berish;

- uch bank kuni ichida sug'urtachini yoki sug'urtachining vakolatli shaxsini sug'urta xolati ro'y berganligi to'g'risida kechi bilan 5 bank kuni ichida yozma ariza berish;

- sug'urtachining vakolatli shaxsiga zarar ko'rgan garov predmetini ko'zdan kechirish uchun taqdim qilish. Agar sug'urtachining vakolatli shaxsi 10 bank kuni ichida xodisa joyiga etib kelmasa zarar ko'rgan garov predmetini foto va vido siyomkalarga tushurib sug'urtachiga taqdim qilish;

- zarar ko'rgan garovga olingan transport vositasini sug'urtachining ruxsatisiz qayta tamirlash ishlarini o'tkazmaslik.

Sug'urta xodisasi ro'y berganda yuqorida keltirilgan talablarni sug'urtalanuvchi tomonidan bajarmasliksug'urtachiga sug'urta qoplamasi to'lashni rad qilishga asos bo'ladi.

Sug'urtalanuvchining sug'urtachiga sug'urta qoplamasi to'lab berish to'g'risidagi talabi quyidagi xujjatlarni taqdim qilishni lozim qiladi:

- sug'urta qoplamasi to'lab berish to'g'risidagi ariza;
- sug'urta polisining originali;
- shaxsni tasdiqlovchi guvoxnoma;
- transport vositasiga egalik qilishga xuquq beruvchi hujjatlar;

- zarar ko'rgan transport vositasini ko'zdan qechirgaligi bo'yicha tuzilgan dalolatnoma (reja, yuk xati, schyot-faktura, naryad-buyurtma, patta, kvitansiya va boshqa xujjatlar) va etkazilgan zarar miqdori to'g'risidagi ekspert tashkilotining xulosasi;

- mutasaddi idoralar tomonidan tuzilgan bayonnoma (qaror, dalolatnoma va boshqa xujjatlar). Mutasaddi idoralar bo‘lib ichki ishlar, avariya xizmati, meteorologiya idorasi va boshqa idoralar bo‘lishi mumkin.

Sodir bo‘lgan xolatni qo‘shimcha ravishda o‘rganish maqsadida sug‘urtachi qo‘shimcha ma‘lumot va xujjatlar talab qilishi mumkin. Zarar ko‘rgan tgarov predmetining fotosiyomkasi, vakolatli idoralarning ma‘lumotnomasi va boshqa xujjatlar. Sug‘urtachi ayrim xolatlarda yuqorida keltirilgan xujjatlar to‘liq tarkibini talab qilmay qaror qabul qilishi mumkin, agar sug‘urta xodisasi ro‘y berganligi to‘g‘risida etarli asos mavjud bo‘lsa.

Sodir bo‘lgan xodisaga daxildor bo‘lgan xujjatlar, ma‘lumotlar va xolatlarni o‘rgangandan so‘ng sug‘urta xodisasi yoki sug‘urta xodisasi emasligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Sug‘urta xodisasiga daxildor bo‘lgan barcha xujjatlar ma‘lumotlar, qo‘shimcha talab qilingan xujjat va ma‘lumotlarni to‘liq olgandan keyin 15 bank kuni ichida da’vo sug‘urtachi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Sug‘urta qildiruvchining, naf oluvchining talabi ko‘rib chiqilish sharoitida quyidagi savollarga ehtiyotkorlik bilan javob topishi zarur:

1. sug‘urta holati ro‘y bergan vaqtda sug‘urta shartnomasi amaldami?
2. shartnoma kuchi sug‘urta qildiruvchiga, yoki naf oluvchiga tadbqiqilinadimi?
3. sug‘urta holati ro‘y berganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinganmi?
4. sug‘urta holatini yuz berishiga nima sabab bo‘ldi?
5. sug‘urta qoplmasi sug‘urta polisga tadbqiqilinadmi?
6. sug‘urta hodisasi va zarar o‘rtasida sabab –oqibati bog‘liqligi o‘rnatilganmi?
7. jabr ko‘ruvchining mulkiy manfaatiga etkazilgan zarar miqdori qancha?

8. zararning qanday turlari bo'yicha va nacha miqdorda sug'urta qoplamasi to'lanishi zarur?¹¹

Sodir bo'lgan xodisa sug'urta xodisasi deb qaralmasa, bu xaqida sug'urtachi sug'urtalanuvchiga, yoki naf oluvchiga yozma ravishda xabar qiladi. Yozma ravishda beriluvchi xabar xatida sug'urta qoplamasi to'lab bermaslik sabablari aniq asoslangan xolda ko'rsatiladi. Yozma ravishdagi xabar sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasi olish to'g'risidagi arizasi berilgan kundan 15 kun ichida beriladi.

Sug'urta xodisasi ro'y berish fakti bilan bog'liq xolda jinoiy ish qo'zg'algan bo'lsa, sug'urtachi sodir bo'lgan xodisasini sug'urta xodisasi deb tan olish to'g'risidagi qarorini tergov ishlari yoki sud jarayoni tugagunga qadar uzaytirishi mumkin.

Sug'urta xodisasi isbotlangandan keyin sug'urta qoplamasi sifatida to'lanuvchi summa belgilanadi. Bu haqida sug'urta dalolatnomasi tuziladi va unga sug'urtachi, sug'urtalanuvchi, yoki naf oluvchi, yoki ularning vakolatli vakillari imzo chekadi.

Sug'urta dalolatnomasida ko'rsatiluvchi ma'lumotlar 6- jadvalda ko'rsatilgan.

Sug'urta xodisasi ro'y berganligini isbotlash majburiyati sug'urtachi majburiyatiga kiradi.

Garov sug'urtasida garov ob'ektiga ayrim etgan zararlar va ular bilan bog'liq hodisalar sug'urta hodisasi deb qaralmaydi. SHu sababali, sug'urtachi sodir bo'lgan bunday voqeani sug'urta xodisasi deb tan olmaydi va sug'urta qoplamasi to'lab berish majburiyatiga ega bo'lmaydi. Ularga quyidagilar kiradi:

- agar hodisa sug'urtachining shartnomaviy majburiyati paydo bo'lgunga qadar yuzaga kelsa;
- agar xodisa sug'urta sharnomasining muddati tugagandan so'ng yuzaga kelsa;

¹¹ Теория и практика црахования. Учебное пособие –М.: Анкил, 2003 -704с(457с.)

3.1- jadval

Sug'urta dalolatnomasida ko'rsatiluvchi ma'lumotlar¹²

t/r	Sug'urta dalolatnomasida bayon qilinuvchi ma'lumotlar
1	Sug'urta ob'ektining nomi
2	Sug'urta polisining raqami
3	Zarani yuz berish sanasi va vaqti
4	Sug'urta muddati
5	Zarar yuz berish sababi
6	Aybdorga talab qo'yish huquqi berilganligi
7	Zararni bartaraf qilish usullari
8	Zararning dastlabki qiymati

- sug'urta polisida ko'rsatilgan franshiza miqdoriga.

Sug'urtachining sug'urta qoplamasi to'lab berishni rad qilish to'g'risidagi qarori ustidan sug'urtalanuvchi tomonidan sudga murojat qilinishi mumkin.

Zarar miqdori sug'urta xodisasi ro'y bergan vaqtda sug'urtalangan transport vositasining qiymatini inobatga olgan xolda, litseziyaga ega bo'lgan idoraning hulosasi asosida aniqlanadi. Mazkur xulosa sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urtachiga taqdim qilinadi.

Sug'urta hodisasi, sug'urta holatlarini sabablarini, zarar miqdorini aniqlash maqsadida ikki tomon xam mustaqil ekspertiza o'tkazish xuquqiga ega. Ekspertiza xarajatlari ekspertiza o'tkazishni talab qilgan tomon xisobidan to'lanadi.

Sug'urtalanuvchining zararlari quyidagi usullarda belgilanadi:

-sug'urtalangan transport vositasi nobud bo'lgan xolatda – qayta tiklash qiymatidan foydalanish mumkin bo'lgan qoldiq qiymati va franshiza summalarini ayirgan xolda;

-sug'urtalangan transport vositasi zarar ko'rgan xolatda – qayta tiklash uchun zarur bo'lgan xarajatlar miqdorida.

¹² Muallif tomonidan tuzilgan

Qayta tiklash xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- remont uchun zarur bo'lgan extiyot qismlarva materiallar;
- remont ishini olib borish uchun to'lov;
- materiallarni remont joyiga olib borish xarajatlari;
- zarar ko'rgan transport vositasini remont qilish uchun zarur bo'lgan boshqa xarajatlar.

Qayta tiklash xarajatlariga quyidagilar kiritilmaydi:

- sug'urtalangan transport vositasini takomillashtirish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar;
- yordamchi va vaqtincha remont bilan brg'liq xarajatlar;
- zaruridan ortiq bo'lgan boshqa xarajatlar;
- sug'urta xolatidan qat'iy nazar transport vositasini profilaktik remonti uchun sarf xarajatlar.

Sug'urta qoplamasi sug'urta summasi meyorida franshiza summasini ayirib tashlagan xolda amalga oshiriladi.

Sug'urta shartnomasida sug'urta summasi garov predmeting sug'urta qiymatiga nisbatan kam miqdorda belgilangan bo'lsa, sug'urta qoplamasi sug'urta summasining sug'urta qiymatiga nisbatan aniqlanadi.

Sug'urta summasi garov predmetining sug'urta qiymatidan oshsa, uning xaqiqiy qiymati miqdorida sug'urta qoplamasi amalga oshiriladi.

Sug'urta qoplamasi sug'urtalanuvchining bank xisob raqamiga o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

-O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan sug'urtalanuvchining yoki naf oluvchining bank xisob raqamiga to'lanadi. Bunda naf oluvchi mutloq xuquqga bo'lib uning miqdori sug'urtalanuvchining naf oluvchi oldidagi qarzdorligi bilan belgilanadi.

Sug'urta qoplamasi to'lagan kun deb sug'urtalanuvchining bank xisob raqamidan ko'chirilgan kun xisoblanadi.

Sug'urta qoplamasi to'lab berilgandan so'ng sug'urtalanuvchining yoki naf oluvchining zararni aybdordan undirib olish xuquqi sug'urtachiga o'tadi.

Sugʻurta qoplamasi toʻlash vaqtida sugʻurtalanuvchi yoki naf oluvchi sugʻurta xodisasi bilan bogʻliq barcha xujjatlarni sugʻurtachiga taqdim qilish va aybdordan undirib olish bilan bogʻliq barcha choralarni amlaga oshirishga yordam berishi zarur.

Sugʻurtalanuvchi yoki naf oluvchi zararni aybdordan undirib olish xuquqidan voz kechmasligi lozim. Aks holda, sugʻurtalanuvchi yoki naf oluvchining ayblari bilan ushbu xuquqni amalga oshirish imkoniyati yoʻqotilsa, sugʻurtachi sugʻurta qildiruvchiga, yoki naf oluvchiga sugʻurta qoplamasi toʻlashni rad qiladi.

Sugʻurta shartnomasida fors- major holatlar belgilanishi mumkin. Bunday holatlarda sugʻurtachi yoki sugʻurtalanuvchi yoki naf oluvchi oʻz zimmasiga olingan majburiyatlar bajarilmay qolsa, ular javobgarlikdan ozod qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, garov sugʻurtasida daʼvolarni koʻrib chiqish murakkab jarayon hisoblanadi. Daʼvolarni koʻrib chiqish jarayonida sugʻurta qildiruvchi, naf oluvchi garov predmetiga etkazilgan zarar uchun sugʻurtachidan sugʻurta qoplamasi toʻlab berishni talab qiladi. Sugʻurta qildiruvchi tomonidan bildirilgan daʼvolar asosli boʻlishi va hujjatlar bilan isbotlanishi talab qilinadi. Har qanday sugʻurta daʼvolari ham sugʻurtachi tomonidan qanotalantirilmaydi. Sugʻurta daʼvolari qondirilishi uchun sugʻurta shartnomasida belgilangan sugʻurta hodisasi roʻy berishi, sugʻurta hodisasi bilan yuzaga kelgan zarar oʻrtasida sabab-oqibat bogʻliqligi mavjud boʻlishi muhim hisoblanadi. Garov sugʻurtasi boʻyicha daʼvolarni koʻrib chiqishda yuzaga kelgan nizolar sud orqali hal qilinadi.

3.2. Garovga qoʻyilgan mol-mulkni sugʻurtalash mexanizmini takomillashtirish yoʻnalishlari

Oʻzbekistonda garov sugʻurtasi kredit munosabatlarida keng qoʻllaniladi. Oʻz mijoziga kredit berishda bank muassalari garov taʼminoti talab qiladi. Mijoz esa oʻzi egalik qilayotgan, foydalanayotgan mulkni garov sifatida bank

muassasiga taqdim qiladi. Garovga qo'yilgan jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkleri sug'urtalash predmeti hisoblandi. Garov sug'urtasi mol-mulk sug'urta tarmog'i tarkibida yosh tarmoq hisoblanadi. Respublikamizda sug'urtaning ushbu turi asta-sekinlik bilan rivojlanib kelmoqda. SHu sababli sug'urtaning ushbu turini amalga oshirish jarayonida etarlicha muammolar mavjud. Garov sug'urtasidagi muammolarni echilishi, gaovga beriluvchi mulklarni sug'urtalash tartibini takomillashtirish kredit munosabatlarini ham rivojlanishiga olib keladi.

Respublikamiz sug'urta bozorida 30 dan ortiq sug'urta tashkilotlari ro'yxatdan o'tgan bo'lsada, garov sug'urtasi bilan faqat ayrim sug'urta tashkilotlari tomonidan muvafaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda. Qolgan sug'urta tashkilotlarining garov sug'urtasi sohasidagi faolligi sezilarli emas. Buning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud.

Garov sug'urtasini rivojlanishiga to'g'anoq bo'luvchi sub'ektiv sabablardan biri- bank muassalarining kredit berish bo'yicha yozilgan bayonnomalarida kiridit ta'minoti sifatida qabul qilingan, garovga olingan mulklarni sug'urtalash faqat mazkur bayonnomada ko'rsatilgan sug'urta tashkilotlarida amalga oshirish zarurligi belgilangan. Buning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomoni shundan iboratki, bayonnomada faqat bitta sug'urta tashkilotini sug'urtalovchi sifatida belgilash orqali, sug'urtachi va bank o'rtasidagi doimiy a'loqalar mustahkamlanadi, bank va sug'urta tashkilotlari o'rtasida o'zaro ishonch chuqurlashadi. Salbiy tomoni shundan iboratki, sug'urta bozorida garov sug'urtasini amalga oshirish borasida tanish-bilish kuchayishiga, raqabatning susayishiga olib kelishi mumkin. Natijada, bank muassalari tomonidan sug'urta tashkilotini tanlashda ma'muriy usulda cheklov qo'yilishi raqobat asosida garov sug'urtasini amalga oshirishga imkon berilmayapti. Sug'urta bozorida sug'urta tashkilotlari uchun teng shart-sharoit yaratilmasligi, boshqa sug'urta tashkilotlarining huquqlarini buzilishiga olib kelinmoqda. Mazkur holatga aksariyat bank muassalari sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatining mustahkamligi

ularning asosiy maqsadi qilib ko'rsatishga harakat qiladilar. O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan barcha sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi Davlat tomonidan tartibga solinib turadi va ishonchli moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi. Sug'urta tashkilotlarining barqarorlik ko'rsatkichlari va to'lov qobiliyatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi Davlat sug'urta nazorati inspeksiyasi tomonidan tartibga solinadi. Moliyaviy barqaror bo'lmagan sug'urta tashkilotlariga sug'urta bilan shug'ullanishga ruhsat berilmaydi.

Ayrim sug'urta tashkilotlari garov sug'urtasi bo'yicha sug'urta shartnomalari tuzgandan keyin sug'urta polislari berishadilar. Ayrim sug'urta tashkilotlari garovga berilgan mol-mukni sug'urtalashda, sug'urta shartnomasini tuzmay, uning o'rniga faqat sug'urta polisi beradilar. Sug'urta polisining orqa tomonidan sug'urtalash tartibidan ayrim shartlar yozilib qo'yiladi. Muammo shundan iboratki. Sug'urta polisining orqa tomonida sug'urtalashning namunaviy qoidalarini ayrim muhim bo'lgan shartlari yozilmay qolish hollari uchraydi. Masalan, regres davolar va boshqa shartlar. Natijada sug'urtachi va sug'urtalanuvchi o'rtasida sug'urta shartnomalari bo'yicha nizolar yuzaga kelishiga olib keladi. Ayrim hollarda sug'urta shartnomalari muddatidan oldin tugatilgan vaqtda sug'urta mukofotini qaytarish bo'yicha ham kelishmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Sug'urtalanuvchilarga sug'urta shartnomalarini tuzishda qo'shimcha ravishda namunaviy qoidalaridan nusxa berish sug'urtachining majburiyati hisoblanadi. Garovga beriluvchi mulklarni sug'urtalash bo'yicha sug'urta shartnomasi bilan birga namunaviy qoida nusxasi berilmaslik sug'urtalanuvchilarning huquqlarini buzilishiga olib keladi.

Garovga berilayotgan mulklarni sug'urtalashda garov predmeti qayta baholanishi zarur. Ularning haqiqiy qiymatini aniqlashda ayrim muammolar mavjud. Garov predmetini haqiqiy bahosini aniqlash uchun sug'urta qildiruvchi qayta baholovchi tashkilotlarni taklif qilishadilar. Ayrim hollarda qayta baholovchi tashkilotlar garov predmetining haqiqiy qiymatini bir-muncha

yuqori yoki past belgilashi mumkin. Buning natijasida sug'urta tashkiloti mazkur sug'urta operatsiyasidan zarar ko'rishi mumkin.

Xulosa

Garovga berilayotgan mulklarni sug'urtalash respublikamiz moliyaviy sektorini rivojlantirishga katta hissa qo'shuvchi, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulklarini turli xil risklar yuz berishi natijasida yuzaga keluvchi zararlardan himoya qiluvchi vosita hisoblanadi.

Bank muassalari yuridik shaxslarga, shuningdek fermer xo'jaliklari uchun kredit berishda bo'lg'usi hosilni, erdan foydalanish huquqini garovga olgan holda taqdim qilishi mumkin. Bank muassalari tomonidan garov ostida berilgan kreditlarning maqsadga muvofiqligi, kredit resurslaridan to'g'ri foydalanilayotganligi doimiy monitoringi olib boriladi. Berilgan kreditning maqsadsiz foydalanishi aniqlangan hollarda, bank muassalari kreditni qaytarib olib qo'yadi. Qarzdorning o'z majburiyatini belgilangan muddatda bajarmaganda garovga qo'yilgan garov predmetini sotish orqali qarzdor qarzi uziladi.

Garov bu - majburiyatni bajarilishini kafillovchi ta'minot. Garovlar ipoteka, garov zaklati va huquqlar garovi ko'rinishlarida bo'ladi. Garov munosabatlari garovga qo'yuvchi va garovga oluvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida vujudga keladi. Garovga qo'yilgan mol-mulk qarzdorning majburiyati belgilangan muddatda bajarilmagan hollarda sotuvga qo'yiladi. Sotilgan mol-mulk qarzdorning qarzini qoplash uchun yo'naltiriladi. Qarzdor o'z zimmasiga olgan majburiyatni garov narsasi sotilishidan oldin ixtiyoriy ravishda bajarganda garovga olingan mol-mulk egasiga qaytariladi. Garov munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Garov to'g'risida"gi Qonun va boshqa amaldagi qonunchilik asosida tartibga solinadi.

Hozrgi kunda sug'urta kompaniyalari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning garovga qo'yilayotgan mulklari umumiy sug'urta tarmog'ining 8 va 9-klasslariga asosan sug'urtalanadi. Ushbu sug'urta turida sug'urta shartnomasi yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuziladi, sug'urta shartnomasini tuzish uchun bank tomonidan rasmiylashtiriladigan kredit shartnomasi va baholash dalolatnomasi, mulk to'g'risidagi ma'lumotlar sug'urta shartnomasini

tuzish uchun zarur bo'ladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga belgilangan shaklda yozma ravishda ariza bilan murojat qiladi va bunda sug'urta puli sug'urta shartnomasi tuzilayotgan vaqtdagi bozor narxidan kelib chiqqan holda, milliy valyutada sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi hamda naf oluvchining kelishuviga asosan belgilanadi, sug'urta mukofoti esa ushbu sug'urta turini amalga oshirayotgan sug'urta kompaniyasi boshqaruvining qarori bilan tasdiqlangan sug'urta tarifi va sug'urtalanuvchining arizasida ko'rsatilgan sug'urta puli, sug'urta muddatiga ko'ra hisoblanadi.

Garov sug'urtasining ob'ekti va sub'ektlari, sug'urtaning boshqa turlariga qaraganda to'li tumanlikka ega. Sug'urta shartnomasida sug'urtachi, sug'urtalanuvchi va naf oluvchi ishtirok etsada, sug'urtalash jarayoniga baholovich tashkilotlar, reeltorlarning munosabatda bo'lishini ko'ramiz. Keyingi bobda garovga berilgan mulkni sug'urtalash amaliyotini bayon qilamiz.

Garov sug'urtasida da'volarni ko'rib chiqish murakkab jarayon hisoblanadi. Da'volarni ko'rib chiqish jarayonida sug'urta qildiruvchi, naf oluvchi garov predmetiga etkazilgan zarar uchun sug'urtachidan sug'urta qoplamasi to'lab berishni talab qiladi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan bildirilgan da'volar asosli bo'lishi va hujjatlar bilan isbotlanishi talab qilinadi. Har qanday sug'urta da'volari ham sug'urtachi tomonidan qanotalantirilmaydi. Sug'urta da'volari qondirilishi uchun sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta hodisasi ro'y berishi, sug'urta hodisasi bilan yuzaga kelgan zarar o'rtasida sabab-oqibat bog'liqligi mavjud bo'lishi muhim hisoblanadi. Garov sug'urtasi bo'yicha da'volarni ko'rib chiqishda yuzaga kelgan nizolar sud orqali hal qilinadi.

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta xizmatlari ko'rsatish, jumladan garov sug'urtasi bo'yicha sug'urta xizmatlari ko'rsatish yildan –yilga rivojlanib bormoqda. Ammo, garov sug'urtasini yanada rivojlantirish uchun hal ichiki imkoniyatlar mavjud. Buning uchun garov sug'urtasini amalga oshirish tartibini takomillashtirish talab qilinadi.

Garovga beriluvchi mulklarni sug'urtalash tartibini takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif qilinadi:

1. Garovga beriluvchi mulklarni sug'urtalashda sug'urta polislari bilan birga sug'urtalashning namunaviy qoidalaridan bir nusxa sug'urtalanuvchilarga berilishini majburiy qilish. Ushbu taklifning amalga tadbiiq qilinishi sug'urta shartnomalari bo'yicha yuzaga keluvchi munozaralarning kamayishiga olib keladi.

2. Garovga beriluvchi mulklarni sug'urtalashda qayta baholovchi shaxslarning garov predmetining haqiqiy bahosini belgilash bo'yicha javobgarligini oshirish.

3. Baxolovchi tashkilotlarni, syurveyer va adjasterlar faoliyatining uzviyligini ta'minlash.

4. Garovga beriluvchi mol-mulkga xavf soluvchi barcha risklarni ro'y berish ehtimolini hisoblovchi, sug'urta tariflarini ilmiy asoslangan holda belgilovchi aktuariylar tayyorlash zarur.

5. Sug'urta tashkilotlari garovga beriluvchi mol-mulklarini sug'urtalash bo'yicha, sug'urta bozori talablariga mos keluvchi yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini faollashtirish.

6. Garovga beriluvchi mol-mulk sug'urtasi segmentini tadqiq qilish uchun zarur bo'lgan sug'urta shartnomalarining soni, sug'urtalangan ob'ektlar, sug'urta hodisasi, sug'urta holatlari, zarar miqdori haqidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O'zbekiston, 2014 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi - T.: O'zbekiston, 2008 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
3. O'zbekiston Respublikasi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 2002 yil 28 may (O'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni. 1997 yil 26 fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoni. 2003 yil 25 mart.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-618-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-872-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-son Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-son Qarori.
10. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz

farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 80 b.

11. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish //Xalq so‘zi, 2013 yil 19 yanvar.

12. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi //Xalq so‘zi, 2014 yil 17 yanvar.

13. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. 2015 yil.

II. Asosiy adabiyotlar

14. Годин А.М., Фрумина С.В. Страхование: учебник. – М.: изд-во «Дашков и К», 2009. – 480 стр.

15. Гаврилова С. Страхование: Учебное пособие. – М.: “Эксмо”, 2010 г. – 304 стр.

16. Рыбин В. Основы страхования. Учебное пособие.– М.:“КНОРУС”, 2010 г.– 240 стр.

17. Страхование: учебник для студентов, обучающихся по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит». Под.ред.В.В.Шахова. – М.: изд-во «ЮНИТИ-ДАНА», 2009. – 511 стр.

18. Самарова Е. Страховая математика: практический курс. Учебное пособие. – М.: “ИНФРА–М ”, 2009 г.– 80 стр.

19. Страхование. Учебник / под ред. Т.А.Федоровой. – М.: “Магистр”, 2009 г. – 1006 стр.

20. Сербиновский Б. Страховое дело. Учебное пособие. – Ростов н/Д: “Феникс ”, 2010 г. – 476 стр.

21. Страхование: экономика, организация, управление. Учебник. – М.: “Экономика”, 2010 г. - 751 стр.
22. Юлдашев Р.Т. Страховой бизнес.-М.: АНКЛ, 2000 г. стр.77-78.
23. Сербиновский Б.Ю., В.Н.Гарькуша. Страховое дело. Учебное пособие.-Ростов-на-Дону, “Феникс”, 2009 г. стр.70.
24. Шахов В. Страхование. Учебник.-М.: “ЮНИТИ”, 2000 г. стр. 223.
25. Хохлов Н.В. Управление риском.-М.: “ЮНИТИ”, 2001 г. стр. 14.
26. Нор-Аревян О. Социальное страхование. Учебник для вузов- М.: Дашков и К., –2011г
27. Ермасов С.В Страхование.. Учебник для вузов – М.:Юрайт., – 2011г
28. Страхование. под редакцией Л.А.Орланюк-Малицкой -М.: Юрайт, –2011г
29. Страховое дело: Учебник в 2-х т. (пер.с нем. О.И.Крюгера и Т.А. Федоровой). – Т.1: Основы страхования/под ред. О.И.Крюгера. – М.: Экономика, –2004 г.
30. Ивасенко А.Г., Никонова Я.И. Страхование. Учебное пособие -М: Кнорус,2009г
31. Сербиновский Б.Ю., Гарькуша В.Н. Страховое дело. Учебное пособие –Феникс, –2008г.
32. Шахова В.В. Ахвледиани. Ю.Т. Страхование. Учебник – М.: Юнити, –2010г.
33. Боев Х.И.,Боева Ж.Б. Мулкий ва шахсий суғурта. Ўқув қўлланма. –Т.:ТДИУ нашриёти. –2003 –30б
34. Qo`ldoshev.Q.M. Sug`urta bozori. O`quv qo`llanma.-T,; “Toshkent-iqtisodiyot”-2011y.-124 bet

III. Qo‘shimcha adabiyotlar

35. Никулина Н. Страховой маркетинг. Учебной пособие.– М.:“ЮНИТИ–ДАНА”, 2009 г. – 503 стр.

36. Ochilov I., Sultonov D. Sugʻurta hisobi va hisoboti. Oʻquv qoʻllanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010y. – 224 bet.

37. Йўлдошев М.,Турсунов Й.Ўзбекистон Республикаси суғурта хукуки. Дарслик. – Т.: Молия, нашириёти, –2012. –264-б.

IV. Davriy nashrlar, statistik toʻplamlar va hisobotlar

38. Большинство страховых претензий удовлетворяется. – Бизнес-вестник Востока, 26 января 2010 года №4 (1217), стр.14.

39. Гребенщиков Э.С. Финансовый кризис в мире: последствия и уроки для страхового бизнеса, регуляторов и страхователей// Финансы, №3 2009 г. с.53-54.

40. Икромов О.Г. Страхование: вчера, сегодня, завтра// Народное слово, 3 июля 2009 г. С.1-2.

41. “Узагросугурта”: страховая защита по всему Узбекистану//Бизнес-вестник Востока, №30, 14 апреля 2011 г. – стр.5.

42. Ikromov O.Gʻ., SHennaev X.M. Oʻzbekistonda sugʻurta xizmatlari bozori: rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.// “Moliya” jurnali, 2011 yil 1-son.

43. NurullaevA.S. Oʻzbekiston Respublikasida fermer va dehqon xoʻjaliklarini sugʻurtalash masalalari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdimqilingan dissertatsiya avtoreferati. – T.: BMA.

44. Bland D. Straxovanie: Prinsipy i praktika – M.: Finansy i statistika, 2000. st.85.; Axvelidiani YU.T. Straxovanie: uchebnik dlya studentov vuzov./ YU.T. Axvelidiani. – 2-e izd., pererab i dop. – M.: YUNITI-DANA, 2011. – 567 s.

45. Djuraev T., Ashrafxanov B., Mirsadykov M. Aspekty deyatel'nosti i struktura organov straxovogo nadzora za rubejom // Ekonomicheskij Vestnik Uzbekistana 2001. - №1/2. st.28.

46. Ashrafxanov B., Mirsadykov M. Razvitie straxovogo zakonodatel'stva respubliki // Bozor, pul va kredit 2002. - №11-12. st. 47.

47. SHennaev X.. Straxovaya sistema Uzbekistana: Etapy stanovleniya. // Рынок, Дengi i kredit. 2004. - №6

48. Abduraxmanov I.X. O‘zbekiston Respublikasida javobgarlikni sug‘urtalashning amaliyotini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdimqilingan dissertatsiya avtoreferati. – T.: BMA, 2010.- 20. b., 2007. – 23. b.

49. Qo‘ldoshev Q.M.Sug‘urta bozorini rivojlantirish va boshqarish muammolari.I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T: BMA, 2009 – 24.

50. Jurnal “Finansy”, 2000 – 2009.

51. Jurnal “Straxovoe delo”, 2000 – 2009.

52. Jurnal “Straxovoe revyu”, 2000 – 2009.

53. Gazeta “Narodnoe slovo”, 2005 – 2014.

54. Gazeta “Biznes-vestnik Vostoka”, 2005 – 2014.

55. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari.

56. “Kapital sug‘urta” hisobot va ma’lumotlari.

VII. Internet saytlari

57. www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

58. www.UzReport.com (“SAIPRO” axborot-reyting agentligi).

59. www.agros.uz (“O‘zagrosug‘urta” davlat-aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi).

60. www.allinsurance.ru (Rossiya Federatsiyasining sug‘urta bo‘yicha sayti).

61. www.expert.ru (Rossiya Federatsiyasi reyting kompaniyasi).

62. www.ankil.ru (Rossiya Federatsiyasining konsalting firmasi).

63. www.znay.ru (Rossiya Federatsiyasining sug‘urta sayti).

64. www.nationalbank.kz (Qozog‘iston Respublikasining sayti).